



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 16 (1615), 2026-yil 24-yanvar, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IQTISODIY O‘SISH BARQARORLIGI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Davlatimiz rahbari yig‘ilish avvalida 2025-yil yakunlariga qisqacha to‘xtaldi.

Ta’kidlanganidek, o‘tgan yilda iqtisodiyotimiz dastlabki prognozlariga nisbatan ancha yuqori sur’atlarda 7,7 foizga o‘shib, yalpi ichki mahsulot hajmi 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o‘shish sur’atlari 2024-yilga nisbatan yuqori bo‘ldi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 43 milliard dollarga, eksport esa 33,8 milliard dollarga yetdi.

Yuqori iqtisodiy faollik va o‘shib borayotgan iste’mol talabiga qaramasdan, inflyatsiya darajasi 2024-yildagi 9,8 foizdan 7,3 foizga pasaydi.

Iqtisodiy o‘shish qanchalik barqaror bo‘lsa, infratuzilmani yaxshilashga shunchalik ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish mumkin bo‘ladi. Bu esa pirovardida bandlikni ta‘minlash, daromadlarni oshirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari ortda qolgan bir yilda 366 ming oila kambag‘allikdan chiqqani, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 5,5 foizdan 4,8 foizga tushganini qayd etdi.

Bularning barchasi islohotlarimiz samarasi bo‘lib, davlat va xalq o‘rtasidagi ishonch tobora mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Lekin hali oldimizda qiladigan ishlarimiz juda ko‘p, — dedi Prezident.

Qayd etilganidek, mahalla islohotlar qayerda ishlayapti, qayerda to‘xtayapti degan savollarga aniq javob beradigan asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Agar mahallada ishsiz odam yoki kambag‘al oila saqlanib qolayotgan bo‘lsa, demak, islohot o‘sha joyga yetib bormagan. Agar “yettilik” tizimi aholi muammosini hal qila olmayotgan bo‘lsa, demak, tizim ishlamayapti.

— Imkoniyat bor, mablag‘ bor, qaror va dasturlar bor. Yetishmayotgan narsa — mas’uliyat va shaxsiy javobgarlik, — dedi davlatimiz rahbari. Prezidentimiz mavjud imkoniyatlarni ishga solishda hokimlar va “mahalla yettilligi”da metodik bilim va amaliy tajriba yetishmayotgani, mas’ul vazirlik va idoralar esa ularga yetarli darajada ko‘maklashmayotganini tanqid qildi.

Mutasaddirlarga bir oy muddatda ishsizlik va kambag‘allik yuqori bo‘lgan mahallalar imkoniyatlarini o‘rganib, eng yaxshi tajribalar asosida metodik qo‘llanma ishlab chiqish topshirildi. Hokimlar esa joylarda uning ijrosini ta‘minlab, aholini ish bilan ta‘minlash, daromadini oshirish va ularni qiynayotgan masalalarga aniq yechim topish uchun shaxsan mas’ul bo‘ladi.

Yig‘ilishda joriy yil uchun 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta‘minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalarning sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingtaga yetkazish, ishsizlik va kambag‘allik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifalari belgilab olindi.

Yig‘ilishda “og‘ir” tuman va mahallalarda aholini ish bilan ta‘minlash va daromadini oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Avvalo, bunday hududlarni barqaror elektr energiyasi bilan ta‘minlash zarurligi qayd etildi. Shu maqsadda 903 ta mahallaning har birida quvvati 300 kilovatt bo‘lgan kichik quyosh elektr stansiyalari qurilib, mahallalarga “beg‘araz aktiv” sifatida beriladi. Ushbu stansiyalar hisobidan har bir mahallada 400-500 million so‘m qo‘shimcha daromad keltiradigan “iqtisodiy aktiv” shakllantiriladi.

Olinadigan “yashil” daromadlar “yashil” chora-tadbirlarni amalga oshirishga, xususan, ehtiyojmand xonadonlarni energiya tejamkor ta‘mirlash, elektr xarajatlarini

kamaytirish va turmush sifatini yaxshilashga yo‘naltiriladi. Quyosh stansiyalarining ekspluatatsiya qilish ishlariga mazkur mahallalarda yashovchi kambag‘al oilalar a‘zolari ishga jalb qilinadi.

Bu ishlar ixtisoslashuv darajasi yuqori bo‘lgan yana 1 mingta ilg‘or mahallada ham amalga oshiriladi. Kichik quyosh stansiyalari tayyor holda 7 yil muddatga mahallalarga foizsiz lizing asosida beriladi.

Prezidentimiz ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirishda mahallalarning ixtisoslashuvini yanada chuqurlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Bugungi kunda 903 ta “og‘ir” mahallada 100 ming gektar tomorqa va ijara yerlari mavjud. Agar hokimlar “mahalla yettilligi” bilan birgalikda suv ta‘minotini yaxshilab, urug‘-ko‘chat bilan ta‘minlab, ixtisoslashuvni tizimli yo‘lga qo‘ysa, aholi daromadi va turmush sharoitida keskin o‘zgarish qilishi mumkinligi ta’kidlandi.

Mahallalarda ixtisoslashuvni rag‘batlantirish maqsadida qo‘shimcha moliyaviy mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaliklari uchun sertifikatlangan ko‘chatlarni xarid qilish xarajatining 50 foizi byudjet hisobidan qoplab beriladi. Meva turiga qarab, “shpaler”lar uchun 20 ming so‘mdan 70 ming so‘mgacha subsidiya ajratiladi. Tomorqada tomchilatib sug‘orishni joriy qilganlarga har 1 sotix uchun 160 ming so‘m kompensatsiya to‘lanadi.

Agar usta dehqonlar mahalladagi har 10 ta xonadonda eksportbop mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘ysa, 2 million so‘m, agar buni tomorqasi bor xonadonlarning kamida 30 foizida amalga oshirsa, qo‘shimcha ravishda 75 million so‘mdan mukofot oladi.

Shuningdek, joriy yilda 2 ming gektar o‘rmon yerlari 4 ming kambag‘al oilaga 50 sotixdan tutzor barpo etish uchun 10 yilga bepul ajratiladi. Pillachilik kooperatsiyasini tashkil etish uchun ehtiyojmand oilalarga 4 million so‘mdan subsidiya, uyida pilla yetishtirish istagida bo‘lganlarga esa xonadonni jihozlash va uskuna xaridi uchun 20 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi.

Yig‘ilishda joriy yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so‘m kredit ajratilishi belgilangani qayd etildi.

— Ochig‘ini aytish kerak, hozir banklar barcha tuman va shaharlarga bir xil shartda kredit taklif qilyapti. Lekin Olmazor bilan Bo‘zatovning imkoniyati va sharoiti bir xil emas. Shu bois, 37 ta “og‘ir” tumanda “oilaviy tadbirkorlik” dasturi doirasida kreditlar 12 foizdan beriladi, — dedi Prezidentimiz.

Barcha tumanlarda “oilaviy tadbirkorlik” bo‘yicha imtiyozli kreditning eng yuqori miqdori 1,5 barobar oshirilib, 50 million so‘mga yetkaziladi. Import qilingan va sertifikatlangan naslli chorva uchun 100 million so‘mgacha, uy mehmonxonasi, kichik muzlatkich, mahsulotni saqlash va qayta ishlash minitexnologiyalari uchun esa 150 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Chegara va anklav hududda joylashgan 563 ta mahalladagi tadbirkorlik loyihalarining kredit miqdori 1 milliard so‘mgacha oshiriladi. Bu maqsadda “oilaviy tadbirkorlik” dasturlariga rejalashtirilgan 3,6 trillion so‘mga qo‘shimcha ravishda yana 2 trillion so‘m resurs yo‘naltiriladi.

Mahallalar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish uchun joriy yil banklar tomonidan jami 17 trillion so‘m kredit ajratiladi. Bunda mahsulot yetishtirishga olingan kreditning 4 foizi, uni qayta ishlash loyihalarida esa 6 foizi kompensatsiya qilib beriladi.

Hokim yordamchilarining ishini “loyihaviy yondashuv” asosida tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

Har bir tuman kesimida “loyihaviy yondashuv” asosida amalga oshiriladigan loyihalar portfeli shakllantiriladi. “Og‘ir” mahallalardagi bo‘sh yer uchastkalari va davlat obyektlarining boshlang‘ich narxini 2-3 barobarga pasaytirib, ularni sotuvga chiqarish amaliyoti joriy etiladi.

Ish o‘rni yaratish va aholi daromadini oshirish bo‘yicha eng yaxshi natija ko‘rsatgan 100 ta “og‘ir” mahallaga 1 milliard so‘mdan qo‘shimcha mablag‘ ajratiladi. Mazkur mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari Xitoy, Turkiya, Koreya va Malayziya kabi davlatlarga bir oylik malaka oshirish kurslariga yuboriladi.

Misol sifatida Olmazor tumanidagi “Kaykovus” kanali bo‘ylab amalga oshiriladigan loyiha keltirildi. Ushbu kanalning 2 kilometr qismi “Eski shahar” hududidagi 8 ta mahalladan o‘tadi. Endi mazkur mahallalardagi hokim yordamchilari yagona “loyiha guruhi”ga birlashib, yaxlit konsepsiya asosida kanal bo‘yida savdo, servis va dam olish infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi.

Xuddi shu tartibda turizm, ta’lim, tibbiy xizmatlar, renovatsiya, ko‘l bo‘ylari va gavjum ko‘chalar bo‘yicha ham hokim yordamchilaridan iborat maxsus “loyiha guruhlari” tashkil etiladi.

“Mahalla yettilligi” faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha poytaxtda yo‘lga qo‘yilgan tajriba enilliklida barcha tuman va shaharlarda ham joriy etiladi. Bundan buyon hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi mahalla raisi taqdimnomasi asosida tuman hokimi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

Davlatimiz rahbari yana bir muhim masalaga e’tibor qaratdi. Mamlakatimizda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbir boshlangani qayd etildi.

Hozirga qadar jami 7 million 613 ming xonadondan 4 million 776 mingtasi ro‘yxatdan o‘tgan. Biroq ushbu jarayon Toshkent shahri, Farg‘ona, Surxondaryo, Buxoro va Toshkent viloyatida sust kechayotgani ko‘rsatib o‘tiladi.

— Bu kabi muhim tadbir mamlakatimizda so‘nggi 37 yil ichida birinchi marta o‘tkazilmoqda. Ro‘yxatga olish har bir mahalla va har bir oilaning real holatini aniqlash, kelgusi rejalarni shu asosda belgilash, eng muhimi, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni joriy etishga xizmat qiladi, — dedi Prezidentimiz va barcha yurtdoshlarimizni ro‘yxatga olish tadbirida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Yig‘ilishda tuman hokimlari, mahalla raislari va hokim yordamchilarining hisobotlari hamda takliflari tinglandi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi bunyodkorlik ishlari va obyektlar faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Xastimom mahallasi Zarqaynar ko‘chasida tashkil etilgan turizm va xizmat ko‘rsatish obyektlarini borib ko‘rdi.

Turizm kam mablag‘ bilan ko‘p ish o‘rni yaratadigan, aholi daromadi va hududlar qiyofasini yaxshilaydigan soha. Toshkent shahrida bu borada imkoniyatlar ko‘p.

Jumladan, Olmazor tumanida ushbu salohiyatni to‘liq ishga solish maqsadida 447 gektar hududni qamrab olgan loyiha amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, 15 ta mahallani o‘zaro bog‘lovchi tuman ahamiyatidagi 6 ta ko‘chada turizm va xizmat ko‘rsatish obyektlari barpo etiladi.

▶ Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA TINCHLIK KENGASHI:

XALQARO HAMKORLIKDA YANGI BOSQICH

Dunyo ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan beqaror bo‘lib turgan murakkab bir sharoitda biz O‘zbekiston tashqi siyosati tarixida muhim va ramziy ahamiyatga ega voqeaga guvoh bo‘ldik. Prezidentimiz Davos shahrida o‘tkazilgan xalqaro muloqot doirasida Tinchlik kengashi tashabbusini qo‘llab-quvvatladi. Bu qadam mamlakatimizning tinchlikparvar va ochiq tashqi siyosatining mantiqiy davomidir.

Munosabat



O‘zbekiston har doim urush emas, muloqot tarafdori bo‘lib kelgan. Yurtimiz mojarolarini diplomatik yo‘l bilan hal etish, davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash tarafdori sifatida xalqaro maydonda e’tirof etilgan. Tinchlik kengashiga qo‘shilish aynan shu prinsiplarga to‘liq mos keladi. Bu harbiy yoki majburiy tuzilma emas, balki

tinchlik, kelishuv va hamkorlikka xizmat qiladigan xalqaro platformadir. AQSH Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Tinchlik kengashining asosiy maqsadi mojaroli hududlarda barqarorlikni ta‘minlash, tinchlik va qonuniy boshqaruvni mustahkamlashdir.

▶ Davomi 2-betda

YANGILANISHLAR SHIDDATI, TARAQQIYOT TO‘LQINI

TAKOMILIGA YETKAZILAYOTGAN “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDA BARCHA SOHALARDAGI KENG QAMROVLI O‘ZGARISHLAR O‘Z AKSINI TOPADI



Mamlakatimizda so‘nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat boshqaruvini isloh etish, inson huquqlarini himoya qilish va fuqarolik jamiyatini kuchaytirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bu xayrli ishlarda muhim yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilayotir.

▶ Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI



2026-yil 24-yanvar, 16-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI YUKSALTIRISHGA XIZMAT QILADI

Boshlanishi 1-betda

Mazkur loyihaning bir qismi — Zarqaynar ko'chasida bajarilgan bunyodkorlik ishlari. Bu hudud asrlar davomida shakllangan tarixiy qiyofasi, milliy me'morchilik an'analari va hunarmandchilik ruhi bilan ajralib turadi.

Respublika byudjetidan ajratilgan 150 milliard so'm hisobiga bu yerdagi 576 ta xonadon milliy ko'rinishda ta'mirlanib, mahalla tarixiy muhliga uyg'un qiyofa kasb etdi.

Yuz nafar tadbirkor tomonidan 166 milliard so'm investitsiya kiritilgani natijasida 7 ta mehmonxona, 8 ta restoran, 5 ta hunarmandlik markazi, 1 ta savdo markazi, 125 ta xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etildi, 1500 nafar fuqaro doimiy ish bilan ta'minlandi.

Davlatimiz rahbari yangilangan ko'cha bo'ylab yurar ekan, milliy me'moriy uslubda ta'mirlangan xonadonlar, obod ko'chalar va aholi uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Shu yerda istiqomat qilayotgan oilalar, turistlar, hunarmandlar bilan samimiy suhbatlashdi.

— Biz turistlar uchun sharoit yaratishni istaymiz, lekin buning asosini ham to'g'ri yo'lga qo'yishimiz kerak. Masalan, hunarmandchilik — milliyligimizni ifodalaydigan asosiy yo'nalishlardan biri. Hunarmandlarga mahsulot ishlab chiqarishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bizning vazifamiz. Malakali kadrlar tayyorlash zarur. Shu maqsadda hunarmandlar universitetini tashkil etish maqsadga muvofiq. Biz tadbirkorlar bilan uchrashyapmiz, endilikda hunarmandlar bilan ham alohida uchrashuvlar tashkil etamiz, — dedi Prezident.

Mutasaddilarga turizm va xizmat ko'rsatish sohalaridagi ishlarni yanada takomillashtirish, mahallalardagi tarixiy muhitni asrab-avaylagan holda iqtisodiy faollikni oshirish, eng muhimi, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan barqaror tizimni shakllantirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga “Olmazor” innovatsion o'sish hududini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan master-reja taqdimot qilindi.

Taqdimotda hududni fazoviy-hududiy rivojlantirish konsepsiyasi, ehtiyojlarni baholash natijalari hamda funksional zonalashtirish yechimlari ko'rsatib o'tildi.

Master-rejaga muvofiq, ta'lim-innovatsiya, turizm va savdo, madaniy meros, biznes hamda AT xizmatlarini qamrab olgan “rivojlanish koridorlari” shakllantirildi.

Eski shahar atrofida Talabalar shaharchasi, universitet va texnoparklar sog'liqni saqlash obyektlari, shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Hazrati Imom majmuasi, Chorsu va tarixiy shahar markazini o'z ichiga olgan turizm yo'nalishlari o'zaro bog'lanadi. Shu bilan birga, shimoliy markaziy ishbilarmonlik hududida ofislar, IT-park va biznes markazlarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Master-rejani amalga oshirish orqali tarixiy merosni saqlagan holda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, hududning iqtisodiy salohiyati va shahar muhitini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

— Har bir ko'cha uchun kamida besh yillik master-reja ishlab chiqish zarur. Kecha Shveysariyaning Davos shahrida binolar saqlangan holda, shahar muhiti sharoitiga mos ravishda rivojlantirilayotganini ko'rdim. Biz ham eski shaharni asrab-avaylashimiz, yanada rivojlantirishimiz shart. Shu maqsadda alohida “Eski shahar” dasturini ishlab chiqish zarur, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmazor tumanidagi “Sinomed” ko'p tarmoqli tibbiyot markazi faoliyati bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili 10-noyabr kuni tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiy sektor tomonidan ko'rsatilayotgani, kelgusida tibbiyotda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha sharoitlar yaratish davom ettirilishini aytgan edi.

Ayni maqsadlarga muvofiq, yurtimizda ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Olmazor tumanida joylashgan “Sinomed” ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bugungi kunda dolzarb bo'lgan barcha yo'nalishlarda, jumladan, tug'uruq, pediatriya, xirurgiya, travmatologiya, ortopediya, endokrinologiya va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritib kelmoqda. Markaz 30 million dollar evaziga barpo etilgan bo'lib, undagi uskunalar Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va Germaniya davlatlaridan olib kelingan.

Klinikada diagnostika hamda statsionar bo'limlari mavjud. Markaz yiliga to'rt yarim ming nafar bemorni qabul qilish quvvatiga ega. Bu yerda 300 dan ziyod ish o'rinalari yaratilgan bo'lib, 80 nafardan ortiq shifokor faoliyat yuritmoqda. Ulardan 60 nafari xorijda, xususan, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, Amerika kabi davlatlarda

malaka oshirgan shifokorlardir. Shu bilan birga, klinikada xorijlik mutaxassislar ham faoliyat yuritmoqda.

Mazkur markaz tarkibida Toshkent shahrida birinchi xususiy tug'uruq majmuasi ishga tushirilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida 30 nafar ayolga xizmat ko'rsata oladi. Kelgusida o'rinalar sonini yanada ko'paytirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Bolalarni emlash, profilaktik ko'riklar ham shu yerda o'tkaziladi.

Klinikada koll-markazlar, maxsus patronaj jamoalari tashkil qilingan. Bemorlarning uyiga chiqqan holda ko'rikdan o'tkazish imkoniyatlari ham mavjud.

Bundan tashqari, respublikadagi eng katta xususiy vaksinatsiya markazi, xususiy sektordagi yagona sterilizatsiya markazi ham tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari ko'p tarmoqli tibbiyot markazida ko'rsatilayotgan xizmatlar, bemorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, jumladan, ambulator sharoitda davolash xonalari bilan tanishdi.

Shu bilan birga, onalik va bolalik yo'nalishida ayolning homilador bo'lgandan boshlab tug'uruqgacha, tug'uruq va undan keyingi davr uchun tayyorlangan tizimli jarayonlarni ko'zdan kechirdi.

Tug'uruq xizmati, ayniqsa, tug'uruqgacha kuzatuv eng muhim masalalardan biri. Ayniqsa, birinchi farzandni dunyoga keltirish unga uchun stress bo'lmisligi kerak. Shunga qadar ayol muntazam kuzatuvda bo'lsa, vaqtida davanlab borsa, unda o'zini avaylash, sog'lom onalik, sog'lom bolalik borasida tushuncha paydo bo'ladi, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari ko'p tarmoqli markazda tashkil etilgan bolalar maydonchasida o'ynayotgan jajji bolajonlar bilan suhbatlashdi.

Eng katta yutug'imiz, sizlar kabi shifokorlar o'zlari olgan bilimlarni yurtimizda qo'llayotganidir. Shu o'rinda aytish lozimki, xususiy tibbiyotni joriy qilish bilan birga raqobatni ham unutmashlik kerak. Raqobat bo'lsagina, odamlarda tanlov bo'ladi. Xususiy davolanish markazlari ko'paysa, aholi davolanish uchun bergan puliga yarasha sifatli xizmatga erishadi, — dedi davlatimiz rahbari klinikajoamasi bilan suhbatda.

Ziyodullo JONBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Abdulaziz RUSTAMOV,
Behruz XUDOYBERDIYEV,
O'ZA maxsus muxbirlari

O'ZBEKISTON VA TINCHLIK KENGASHI: XALQARO HAMKORLIKDA YANGI BOSQICH



Qobiljon TURSUNOV,
senator

Boshlanishi 1-betda

Bu kengash BMT bilan hamkorlikda ishlaydi, ammo uning vazifasi asosan maslahatchi, diplomatik va barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida belgilangan.

Kengashning nizomi mojaroli mintaqalarda faoliyat yuritish, ishonch muhitini yaratish va xalqaro hamkorlik orqali tinchlikni ta'minlashni nazarda tutadi. Shuningdek, u xalqaro jamoatchilik uchun investitsiya va iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Tinchlik kengashiga ta'sischi davlat sifatida qo'shilishi bilan xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. Bu qadam nafaqat mamlakatimizning diplomatik pozitsiyasini kuchaytiradi, balki global tinchlik va barqarorlikka hissa qo'shish imkonini ham beradi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida tinchlik va xavfsizlik masalalari strategik ahamiyatga ega. O'zbekistonning ushbu kengashga qo'shilishi yurtimiz uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi.

Birinchi, xalqaro nufuz va ishonch: O'zbekiston mas'uliyatli va tinchlikparvar davlat sifatida e'tirof etildi. Bu xalqaro hamkorlik va muloqotda ishonchli sherik sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Ikkinchi, iqtisodiy va investitsiya imkoniyatlari: Tinchlik kengashi doirasidagi loyihalar mamlakatimiz uchun iqtisodiy hamkorlik va investitsiya muhitini yanada mustahkamlaydi. Barqarorlik va xavfsizlik ichki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ham

Munosabat

ijobiy ta'sir qiladi.

Uchinchi, global va mintaqaviy hamkorlik: O'zbekiston mintaqaviy va global masalalarda o'z tajribasini ilgari surishi, Afg'oniston masalasidagi konstruktiv pozitsiyasi va Markaziy Osiyoda ishonch muhitini mustahkamlash bo'yicha faoliyat orqali yanada keng xalqaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchi, milliy manfaatlarni ta'minlash: Tinchlik kengashi faqat xalqaro vazifalar bilan cheklanmay, O'zbekistonning milliy manfaatlarini ham himoya qiladi. Mamlakat mustaqil tashqi siyosat yuritish, harbiy bloklarga qo'shilmaslik va tinchlik yo'lidan borish prinsiplarini saqlaydi.

Tinchlik kengashi O'zbekiston uchun nafaqat diplomatik va siyosiy ahamiyatga ega, balki u xalqaro miqyosdagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan amaliyot maydoni hamdir. Ushbu kengash orqali O'zbekiston:

— mojaroli hududlarda barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etish;

— global tinchlik tashabbuslarini ilgari surish;

— iqtisodiy va gumanitar hamkorlikda yangi imkoniyatlar yaratish;

— mintaqaviy va global ta'sirni kuchaytirish imkoniga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, kengash BMT va boshqa xalqaro institutlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi roli va nufuzini yanada oshiradi.

Tinchlik kengashiga qo'shilish O'zbekiston uchun strategik va tarixiy ahamiyatga ega qadamdir. Bu qadam mamlakatimizning global tinchlik va barqarorlikka hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi, milliy manfaatlarni himoya qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash uchun barqaror platforma yaratadi.

O'zbekistonning Afg'oniston masalasidagi konstruktiv pozitsiyasi, Markaziy Osiyoda ishonch muhitini yaratish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari xalqaro maydonda yuqori baholanmoqda. Bu tajriba Tinchlik kengashi doirasida ham mamlakatimiz faol ishtirok etishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Ishonch bilan aytish mumkin, bu qaror qisqa muddatli siyosiy manfaatlar uchun emas, balki kelajak avlodlar uchun tinch, barqaror va rivojlangan O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan. Biz tinchlikka hissa qo'shish orqali o'z milliy manfaatlarimizni ham mustahkamlaymiz.

Yuritilayotgan oqilona va strategik tashqi siyosat nafaqat mamlakatimiz uchun samarali, balki xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning maqomi va ta'sirini ham oshiradi. O'zbekiston tanlagan yo'l muloqot, hamkorlik va tinchlik yo'lidir. Bu yo'l nafaqat milliy rivojlanish, balki dunyoning barqaror va xavfsiz global tizimiga ham hissa qo'shish imkoniyatini taqdim etadi.

Shuningdek, ushbu tashqi siyosat O'zbekiston uchun xalqaro investitsiyalar, gumanitar va iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, mintaqaviy hamda global ta'sirini mustahkamlash uchun barqaror zamin yaratadi.

Shveysariyaga tashrif bilan bog'liq yana bir jihatga to'xtalish lozim. Davlatimiz rahbari Tinchlik kengashi nizomini imzolash marosimi doirasida qator davlatlar yetakchilari, yirik xalqaro moliyaviy tashkilot va kompaniyalar rahbarlari bilan qilgan samarali muloqoti ham yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlagan holda O'zbekistonning tinch va barqaror taraqqiyoti uchun zamin hozirlaydi.

Islohot odimlari



INVESTITSIYA, ISHLAB CHIQARISH VA NATIJA

“Thermo Tech” MCHJ “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida metall panelli istitish radiatorlarini ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirdi. Umumiy qiymati 30 million dollar bo‘lgan loyiha doirasida 300 ta yangi ish o‘rni ochildi.

— Ichki va tashqi bozorda metall panelli istitish radiatorlariga talab yuqori, — deydi korxona rahbari Ziyoviddin Yunusov. — Mahsulotlarning asosiy qismi shu kunga qadar Xitoy, Turkiya, Italiya va Rossiyadan import qilingan. Endi bunga zarurat qolmadi. Yangi loyiha bu jabhada o'ziga xos raqobat muhitini shakllantirish bilan birga, mijozlarga tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Korxonamizning yillik quvvati 900 mingta mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu yerda tejamkor, yuqori sifatli, uzunligi 30 santimetrdan 3 metrgacha bo'lgan istitish radiatorlari ishlab chiqariladi.

Italiya va Turkiyadan olib kelingan texnika va texnologiyalarni boshqarayotgan ishchi-xizmatchilarning aksariyati mahalliy yoshlardan iborat. Xorijdan kelgan mutaxassislar ularga kasb sirlarini o'rgatmoqda. “Oqsuv” mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan Yulduzxon Qodirova shunday yoshlardan. U ikki farzandning onasi. Bir necha yildirki, ishsiz edi. Yangi korxona bu oila uchun ham imkoniyat, farovonlik eshiklarini ochdi.

— Mahallamizga yaqin hududda korxona ishga tushirilgani ayni muddao bo'ldi, — deydi Yulduzxon. — Bu yerda ishchilar uchun zarur sharoit yaratilgan. Oylik maoshimizni vaqtida olaymiz, bepul tushlik bilan ta'minlanyapmiz. Uzoqdan kelib ishlovchilar uchun maxsus transport qatnovi yo'lga qo'yilgan.

Keyingi yillarda mahalliy sharoitda import o'rmini bosuvchi sanoat va qurilish materiallari ishlab chiqarish borasidagi loyiha hamda tashabbuslar ko'lamini kengayib borayotgani ortiqcha sarf-xarajat va ovoragarchiliklarga barham berdi. Sement va bog'lovchi materiallar, oyna va undan yasalgan buyumlar, DSP, MDF va boshqa plitalar, PVX va plastmassa buyumlar, keramika, portland sement singari qurilish mahsulotlari endi mahalliy sanoat korxonalarida ishlab chiqarilaypti.

Bu ishlarning sifati va samaradorligini oshirishda “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasining alohida o‘rni bor. Bugunga qadar bu yerda umumiy qiymati 1 milliard 88 million dollarlik 153 ta yirik

investitsiya loyihasi joylashtirildi. Foydalanishga topshirilgan sanoat korxonalarini 3 trillion 601 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqardi. Import o'rmini bosgan ushbu mahsulotlar ichki iste'mol bozoridan tashqari xorijga ham sotilmoqda. O'tgan yili sanoat zonasida ishga tushirilgan loyihalar hisobidan 126,6 million dollarlik sanoat



Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

va qurilish mahsulotlari eksport qilindi. Mazkur korxonalarda 11 ming 340 ishchi-xizmatchi faoliyat yuritmoqda.

— O'zbekistondagi tinchlik va barqarorlik, xorijlik sarmoyador, ishbilarmonlar uchun yaratilgan qulay sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar faoliyatimizda qo'l kelmoqda, — deydi qurilish materiallari ishlab chiqarishga

ixtisoslashgan “BNBM” korxonasi rahbari Jo Do Shan. — Loyiha doirasida 30 million dollarlik investitsiya o'zlashtirilib, ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Hozir qurilish mahsulotlari hajmi va turini ko'paytirish bo'yicha yangi loyihalarni ishga tushirmoqchimiz.

Farg'ona viloyatida yer osti boyliklari ko'p. Bu arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonida har jihatdan qo'l kelayotir. Masalan, ishlab chiqarish uchun kerakli birlamchi qurilish ashyolari Sho'rsuv tog'-konlaridan qazib olinadi. Bu yerda xomashyoni saralash, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, sotish bilan bog'liq jarayonlar qamrab olingan.

Uchko'priq tumanida Xitoyning “Yong Xin” kompaniyasi tomonidan 90 million dollarlik kafel mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, 75 million dollarlik investitsiya o'zlashtirildi. Loyiha doirasida yiliga 29 million kvadrat metr kafel mahsuloti ishlab chiqarilib, yuqori daromadli 700 ta ish o'rni ochildi.

— O'tgan yili barcha yo'nalishni qamrab olgan 1281 ta loyiha ishga tushirilib, 3,7 milliard dollar investitsiya o'zlashtirildi. Uning 2,5 milliardli xorijiy investitsiya hissasiga to'g'ri keladi, — deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Nuriddin

“Farg'ona viloyatiga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan mamlakatlar qatorida Xitoy karvonboshilik qilmoqda. Mamlakat bu yo'nalishda 1 milliard 539 million dollar investitsiya kiritdi. Shuningdek, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya singari iqtisodiy barqaror davlatlar vakillari ham farg'onaliklar bilan uzviy hamkorlik qilib kelmoqda.

Mamajonov. — Joriy yilda 4,2 milliard dollar investitsiya jalb etish va 52 mingga yaqin yangi ish o'rni ochish rejalashtirilgan. Quva hamda Toshloq tumanlarida Xitoy, Turkiya va Yaponiya kompaniyalari ishtirokida yirik sanoat va infratuzilma loyihalari amalga oshiriladi. Amaliy hamkorlik eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarga chiqish, xalqaro sertifikatlar olish hamda savdo uylari sonini kengaytirish imkonini beradi.

Hozir Janubiy Koreyaning “Hansae mobility” kompaniyasi qiymati 50 million dollarlik avtomobil ehtiyoj qismlarini ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishga kirishgan. Quva tumanida Turkiyaning “Xeyal Xolding” kompaniyasi bilan umumiy qiymati 350 million dollarlik “Turk sanoat zonasi”ni tashkil etish loyihasiga start berildi.

Farg'ona viloyatiga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan mamlakatlar qatorida Xitoy karvonboshilik qilmoqda. Mamlakat bu yo'nalishda 1 milliard 539 million dollar investitsiya kiritdi. Shuningdek, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya singari iqtisodiy barqaror davlatlar vakillari ham farg'onaliklar bilan uzviy hamkorlik qilib kelmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



YANGILANISHLAR SHIDDATI, TARAQQIYOT TO‘LQINI

Takomiliga yetkazilayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida barcha sohalaridagi keng qamrovli o‘zgarishlar o‘z aksini topadi

Boshlanishi 1-betda

Mazkur hujjatda belgilangan vazifalar ildamlilik bilan hayotga tatbiq etilishi natijasida dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay, barcha soha va tarmoqlarda ulkan maralarga erishilyapti. Yalpi ichki mahsulot hajmi yildan yilga oshyapti. Iqtisodiy o‘rsh samarasi odamlar hayotida, oilalar daromadida, mahallalar qiyofasida, yoshlarning kelajakka ishonchida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Umuman, yurtimizda kechayotgan yangilanishlar shiddati o‘laroq hujjat doirasida 2030-yilga qadar maqsad qilingan ko‘plab natijalarga 2026-yilning o‘zida erishilishi kutilyapti.

Shu bois, Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida aholi farovonligi va yurt ravnaqiga xizmat qilayotgan ana shunday muhim yutuqlar

xususida to‘xtalib, erishilgan ulkan natijalar, yangi ustuvor vazifalar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etayotganini, yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilib, xalqimizning fikr-mulohazalari asosida takomillashtirilishini aytgan edi.

Ushbu hujjatning takomillashtirilgan loyihasi uzbekistan2030.uz hamda regulation.gov.uz platformalariga joylashtirilib, keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokama qilinmoqda. Hujjat loyihasi muhokamasi bo‘yicha qator tadbirlar ham bo‘lib o‘tmoqda. Jumladan, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi o‘tkazgan matbuot anjumanlarida vazirlik, idora, tashkilotlar vakillari, olimlar, ekspertlar, jurnalistlar ishtirok etib, taklif va mulohazalarini bildirdi.

Darhaqiqat, bugun dunyoda iqtisodiy vaziyat, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro munosabatlarda tez o‘zgarishlar. Bu esa davlat oldiga yangidan yangi vazifalarni qo‘yayotgani tabiiy. Shu sababli, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini bugungi real sharoit, aholining ehtiyojlari va zamon talablariga moslab yangilash zarurati paydo bo‘ldi. Shundan kelib chiqib, takomillashtirilgan hujjat loyihasida jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning hayotini yanada yengillashtirish, yangi Renessansga erishish bilan bog‘liq ustuvor maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishga oid muhim reja va ko‘rsatkichlar belgilangan. Ularni aniq natijaga aylantirish uchun salohiyat va imkoniyatimiz yetarlami?

Qator vazirlik va agentliklar mas‘ul xodimlarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.



Jahongir SHUKUROV,
Raqamli texnologiyalar vazirligi
boshqarma boshlig‘i

HAR BIR MASALANING IJROCHISI, MUDDATI, RESURSI YAGONA PLATFORMADA

Mamlakatimizni mintaqaviy AT xabiga aylantirish islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Shu maqsadda davlat boshqaruvi va sohalarni raqamlashtirish, aloqa infratuzilmasini yaxshilash, AT ta‘limini rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar bajarilmoqda.

Xususan, birgina 2025-yilda AT, fintex, sun‘iy intellekt kabi yo‘nalishlardagi mahalliy startaplarga xorijdan 300 million dollar investitsiya jalb qilindi. Ana shunday muhim islohotlar samarasida mamlakatimizda AT xizmatlari eksporti ilk bor 1 milliard dollarni tashkil etdi. 2030-yilga borib, AT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha katta marra olingan va ushbu ezuq maqsad yo‘lida dadil qadamlar tashlanyapti.

Raqamli texnologiyalarning hayotimizga shu tarzda chuqur kirib kelishi barcha soha qatori davlat boshqaruvi tizimida ham ochiqlik, shaffoflik, samaradorlikni oshirishga xizmat qilayapti. Bu,

bo‘lgani hech kimga sir emas. Bugun bu holatlar haqida deyarli eslamaydigan ham bo‘ldik. Chunki davlat xizmatlaridan foydalanishdagi yangicha imkoniyatlar tufayli hatto uydan chiqmay turib ko‘p ishlarimizni bitiraymiz. Raqamli xizmatlardan foydalanish vaqtni tejab, ovoragarchiliklarning oldini olish bilan birga sarf-xarajat, ayniqsa, qog‘ozdan foydalanishni kamaytirish orqali ham iqtisodiy samaradorlikka, ham tabiiy resurslarni tejashga zamin hozirlayapti.

Endi bu yutuq va imkoniyatlar ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha katta qadamlar tashlanyapti. Davlat boshqaruvi tizimi tubdan takomillashtirilib, joriy yildan elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Barcha davlat idoralarning mingdan ziyod davlat xizmati, 5000 dan ortiq funksiya va vazifasi, 200 ta ma‘lumot bazasi va axborot tizimi, 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari yagona raqamli platformaga



Eldor MAHKAMOV,
Adliya vazirligi
departament boshlig‘i

Takomillashayotgan strategiya asosida Prezidentimiz ilgari surgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan muhim g‘oya mujassam. Yangi tahrirdagi strategiyada aynan shu tamoyilni hayotga joriy etish, ya‘ni davlat organini yanada samarali, aniq natijaga yo‘naltirish va hisobdorlikni oshirish maqsad qilingan.

Strategiyani yangilash jarayonida shu paytgacha erishilgan natijalar chuqur o‘rganildi, muammolar ochiq tan olinib, inobatga olindi. Har bir maqsadning qay darajada bajarilayotganini aniq ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkichlar qayta ko‘rib chiqildi. Shuningdek, har bir vazifa uchun qaysi davlat organi javobgar ekan va uni amalga oshirish uchun qanday moliyaviy manbalarni ajratilishi ochiq belgilab qo‘yilmoqda. Bu esa javobgarlik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Yana bir muhim masala — strategiya oddiy odamlar uchun ham tushunarli bo‘lishi kerak. Yangi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi shunday ishlab chiqilmoqda. Har bir fuqaro undan o‘z hayotida, oilasi farovonligi va farzandlari kelajagida qanday foydaga borligini his qila olsun. Ya‘ni bu hujjat faqat shiorlar emas, balki kundalik hayotda seziladigan aniq o‘zgarishlarni nazarda tutadi.



YUQORI LAVOZIMDAGI DAVLAT XIZMATCHILARINING KORRUPSIYAGA MOYILLIK DARAJASI ANIQLANADI

Shu kunlarda olimlar, mutaxassislar va keng jamoatchilik ishtirokida qizg‘in muhokama qilinayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilayotgan loyihasida jamiyatimizning barcha sohasida modernizatsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq muhim chora-tadbirlar o‘z ifodasini topgan. Albatta, bu borada ko‘zlangan yuksak maralarga erishish davlat xizmatchilari zimmasiga ham katta mas‘uliyat yuklaydi.

Shu bois, so‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatini chinakam inklyuziv xalq xizmatiga aylantirish bo‘yicha tizimli islohotlar o‘tkazilmoqda. Jumladan, islohotlar har bir xonadonga qadar kirib borishi uchun “mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi, muzantilli ko‘mak va ijtimoiy himoya instituti kuchaytirildi. 700 dan ziyod davlat xizmati “yagona darcha” tamoyili asosida onlayn platformalar orqali ko‘rsatilmoqda.

Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadida zamon talablariga mos iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish va professional davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish bo‘yicha kadrlar



G‘olibjon ABDUAZIZOV,
Boshqaruv samaradorligi
agentligi departament
boshlig‘i

tayyorlash klasteri tashkil etildi. Institutsional salohiyatini oshirish va inson kapitaliga sarmoya kiritishga ko‘maklashish uchun xalqaro tajriba asosida endaument imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

Oldimizga qo‘yilgan ezuq maqsad — ochiq, shaffof va adolati jamiyat barpo etishda davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish, davlat xizmatida meritokratiya, halollik va professionallik mezonlariga keng yo‘l ochish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda so‘nggi yillarda davlat xizmatiga ishga qabul qilishda elektron shaklda tanlov asosida saralash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu, avvalo, davlat organlariga ishga kirishda tanish-bilishchilik va korruptsiya kabi illatlarga barham berdi.

Qolaversa, bilimli, o‘z zimmasiga yuklangan mas‘uliyatni teran his qiladigan, tashabbuskor va fidoyi yoshlarni ishga qabul qilish orqali xalqimizning davlat idoralariga ishonchi ortmoqda. Bu yo‘nalishda ishlar boshlangan dastlabki yillarda bitta bo‘sh ish o‘rniga 10 nafargacha nomzod bellashgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 40 nafarga yetyapti. Bu raqamlar ham malakali kadrlarning davlat xizmatida ishlash, xalqimizga munosib xizmat qilishga intilishi qanchalik kuchli ekanini va yaratilgan tanlov tizimiga ishonchini namoyon etadi.

Ana shunday e‘tibor va imkoniyatlar hamda davlat xizmati va boshqaruvi jarayonlarining to‘liq raqamlashtirilishi natijasida O‘zbekiston

soddalashtiriladi. Xizmat ko‘rsatish muddatlari keskin qisqartiriladi hamda ortiqcha hujjat va ma‘lumotlar talabi bekor qilinadi. Xususan, joriy yilda 100 dan ortiq davlat xizmatini ko‘rsatish muddati 50 foizga qisqaradi hamda 110 dan ziyod ma‘lumot va hujjatlar talabi to‘liq bekor qilinadi. Davlat xizmatlari portali, “Litsenziya” tizimi, “Yagona darcha” bo‘xona platformasi va “Koll-markaz”lar to‘liq sun‘iy intellekt asosida ishlashga o‘tadi.

Davlat tashkilotlarining reytingi yuritilmoqda. Ularning faoliyati xizmatlarni raqamlashtirgani, qonun buzilishlariga yo‘l qo‘yilmayotgani va fuqarolarning qoniqish darajasidan kelib chiqib baholalanadi. Chekka hududlarda aholining onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish maqsadida mingdan ortiq infokiosklarni odamlar gavjum va uzoq mahallalarga joylashtirish choralarini ko‘riladi.

Idoralararo to‘liq integratsiya yo‘lga qo‘yiladi, fuqaro biror ma‘lumotni davlat tashkilotiga olib borishi shart emas. Tashkilotlar bu ma‘lumotni bir-biridan elektron olishi kerak. Xizmatlarni raqamli kuzatish imkoniyati yaratiladi. Fuqaro har bir xizmat bosqichini onlayn ko‘ra oladi. Inson omili ishtiroki asosida minimalashtiriladi. Funksiyalar 30 foiz qisqartiriladi hamda tizimdagi ortiqcha yukdan xalos bo‘linadi.

Davlat organlari faoliyatida byurokratiyaning asosiy sabablaridan biri takrorlanuvchi va zamonga mos bo‘lmagan funksiyalardir. Endi ahamiyatini yo‘qotgan, amalda foyda bermaydigan, xususiy sektor bajarishi mumkin bo‘lgan funksiyalar to‘liq bekor qilinadi. Davlat organlarining barcha funksiyasi qadam-baqadam tahlil qilinadi va optimallashtirish bo‘yicha asosli takliflar tayyorlanadi.

Vaqt sarfi 50 foiz qisqartiriladi. Fuqaro uchun real yengillik yaratiladi. Buni amalga oshirish uchun boshqaruvdagi ortiqcha bosqichlar bartaraf etiladi, talab qilinadigan hujjatlar minimalashtiriladi, platformalar o‘zaro integratsiya qilinadi, jarayonlar raqamlashtiriladi.

Ushbu choralar davlat xizmatidan foydalanishni oddiy, tez va insonparvar jarayonga aylantiradi.

BMTning elektron hukumatlar rivojlanish darajasi bo‘yicha global reytingida 24 pog‘ona, sun‘iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro indeksda so‘nggi bir yilda 17 pog‘ona ko‘tarildi.

Bu yutuqlar bilan birga sohada hamon xalqimizning ishonchiga putur yetkazadigan salbiy holatlar, korruptsiya bilan bog‘liq muammolar uchrab turibdi. Bu illatlarni bartaraf etish borasida doimiy izlanishdamiz. Shu maqsadda monitoring va nazorat ishlari yo‘lga qo‘yilgan, sohaning huquqiy va tashkiliy asoslari muntazam takomillashtirilyapti. Prezidentimizning 2025-yil 6-dekabrda “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim dasturulamal bo‘lmoqda.

Ushbu farmon asosida davlat organlarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish, hududlarda yangi imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat organlarida inson resurslari bilan ishlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda.

Takomillashayotgan strategiyada ham bu yo‘nalishda muhim vazifalar ko‘zda tutilgan. Xususan, endi davlat fuqarolik xizmatida inson omilini qisqartirish, faqat malaka, bilim, tajribaga tayangan holda salohiyatli kadrlarni tanlab xalqimizga yuqori saviyada xizmat ko‘rsatish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

“**Ilgari biror davlat xizmatidan foydalanish uchun odamlar oylab idorama-idora qatnab, sarson bo‘lgani hech kimga sir emas. Bugun bu holatlar haqida deyarli eslamaydigan ham bo‘ldik. Chunki davlat xizmatlaridan foydalanishdagi yangicha imkoniyatlar tufayli hatto uydan chiqmay turib ko‘p ishlarimizni bitiraymiz.**

avvalo, davlat va xalq o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, “xalq xizmatidagi davlat” tamoyilini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilishi xalqimizning davlat xizmatlaridan foydalanishida ham yorqin ishtibollarni ochmoqda. Bugun my.gov.uz yagona portali orqali 13 milliondan ortiq fuqaro va tadbirkorlar 800 turdagi onlayn xizmatdan foydalanmoqda. Ijro intizomi yagona darcha — ijro.gov.uz orqali davlat idoralari va ularning quyi bo‘g‘inlari xodimlari tomonidan hujjatlarni elektron ayirboshlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu davlat xizmatchilari faoliyatini takomillashtirish barobarida xalqimizning ham mushuklini oson, uzog‘ini yaqin qilmoqda.

Ilgari biror davlat xizmatidan foydalanish uchun odamlar oylab idorama-idora qatnab, sarson

yagona platformasiga ulangan servislarni sonini 700 taga yetkazib, hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo‘lishini ta‘minlash rejalashtirilgan. Yana bir katta marra — BMTning elektron hukumatni rivojlantirish reytingida ilg‘or 30 talik ro‘yxatiga kirishdir.

Bunday zalvorli maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, barcha soha va tarmoqlarni raqamlashtirishda, eng avvalo, malakali mutaxassislarga tayaniladi. Shu bois, yoshlarni AT sohasiga keng jalb etish, bu borada iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy bilimlarni chuqur egallashiga katta e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, har yili 50 ming maktab o‘quvchisi xalqaro AT bozorida talab yuqori zamonaviy kasblarga o‘qitiladi. “Bir million sun‘iy intellekt yetakchisi” loyihasi doirasida har yili eng iqtidorli 15 ming yosh nufuzli xalqaro kompaniyalar talabiga mos dasturlar asosida tayyorlanadi.

Bugun nafaqat davlat xizmatida, balki xususiy tarmoqda ham professionallik tamoyillari muhim mezonaga aylanayapti. Zero, faqat bilimlari, tajribalari, o‘z ishiniing ustasi bo‘lgan malakali kadrlar kun sayin o‘zgarib borayotgan davr talablariga tez moslashib, har bir soha va tarmoq rivojiga katta ulush qo‘sha oladi. Shu bois, iste‘dodli mutaxassislarni izlab topish, ularga o‘z salohiyatini rivojlantirish va jamiyatda munosib o‘rniga ega bo‘lishiga ko‘maklashish ham dolzarb vazifadir.

Shu maqsadda yangicha tizim yaratilyapti. Bunda, birinchi navbatda, davlat organlarida faoliyat yuritayotgan salohiyatli va iqtidorli kadrlar aniqlanib, ularning bilimi va tajribasini soha rivojiga yo‘naltirishga ko‘maklashiladi. Bu davlat organlarini bilimli, salohiyatli, tashabbuskor, professional kadrlar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

Strategiyada, shuningdek, malaka darajasiga asoslangan karyera modeli orqali davlat xizmatini yanada rivojlantirish borasida ham tegishli vazifalar belgilangan. Bu bo‘yicha qator platformalar ishlab chiqilgan va davlat xizmatchilari o‘qitilyapti. Endi bu ishlar ko‘lami kengaytirilib, markazlashtirilgan va muvofiqashtirilgan tizim yaratiladi. Bunda har bir davlat organi xodimlari bilimi va tajribasini boyitishi, o‘z ustida ishlash mahoratini doimiy oshirib borishi uchun barcha sharoit yaratiladi.
Yaqin istiqbolga mo‘ljallangan strategiyada belgilangan vazifalarning ro‘yobga chiqarilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, yurtimizning taraqqiyotini yuksaltirish va xalqimizni rozi qilishda muhim dasturulamal bo‘ladi.
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.



MAHALLADAN BOSHLANAYOTGAN BIZNES

Shahar sharoitidagi mikroloyihalar minglab odamlar bandligini ta’minlayapti

— O‘SHA MASHHUR HUNARMAND-TADBIRKOR FOTIMA QURBONOVA SIZ EKANSIZ-DA?!

— HA, FOTIMA QURBONOVA MEN BO‘LAMAN, AMMO MASHHURLIGIMNI BILMAS EKANMAN!

— HOZIR SIZDEK O‘Z HUNARI ORTIDAN YUZLAB ISHSIZ, UYDA O‘TIRGAN AYOLLAR BANDLIGINI TA‘MINLAB, KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA HISSA QO‘SHAYOTGAN, BIRGINA IMTIYOZLI KREDIT OLISH ORTIDAN ISHINI YAXSHIGINA KENGAYTIRIB, MILLIY BREND OSTIDAGI MAHSULOTLARNI XORIJDA HAM OMMALASHTIRAYOTGAN YURTDOSHLARIMIZ NAFAQAT MASHHUR, BALKI DOIMIIY E‘TIBORDA, HURMATDA, AXIR.



Biz izlab borgan qahramonimiz bilan suhbatimiz shunday boshlandi. Toshkent shahri Chilonzor tumanida istiqomat qiladigan bu ayol keyingi yillarda hunarmandchilikning o‘ziga xos yo‘nalishi — qoldiq matolardan ip o‘rab, undan zamonaviy kashtachilik va esdalik buyumlar to‘qishni ommalashtirgan tadbirkorlardan biri. Hozirgi kunda urfga kirgan to‘qilgan poyabzallar, belanchak va sumkalar o‘zining dizaynerlik ishlari asosida tayyorlanadi. Ayol bu ishni boshlagan vaqtlari ipdan to‘qilgan mahsulotlar xorijda ommalashayotgan edi. Fotima opa esa ayni karantinda davrida yurtimizda birinchilardan bo‘lib ipdan poyabzal to‘qiy boshlagan. Keyinchalik asosiy xomashyo — ipni ham o‘zi tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Hozirgacha ayolning faoliyatida barcha ishlar qo‘l mehnatiga asoslanadi. Ayniqsa, ip o‘rash ko‘p ishchi kuchi talab qiladi. Fotima opa esa bunga asosan uyda o‘tirgan, kam ta‘minlangan va ishsiz xotin-qizlarni jalb qiladi. Ular mato qiyimlaridan ip o‘raydi va har bir o‘ram ip uchun 2 ming so‘mdan oladi. Ayol birgina ana shu hunari ortidan nafaqat Toshkent shahri, balki yurtimizning barcha hududlaridagi yuzlab talabgorlarni ish va daromad bilan ta‘minlayapti.

Ipdan to‘qilgan mahsulotlari bozorda juda talabgir. Ekologik toza ipdan faqat qo‘l ishida tayyorlangani bois, chet eldan buyurtmalar soni ham oshib boryapti. Yaqinda Nyu-Yorkda o‘tgan nufuzli moda ko‘rgazmasi uchun buyurtma asosida 20 ta ayollar sumkasi tayyorlab berdi. O‘sha moda ko‘rgazmasi aks etgan xorijiy jurnalni varaqlaganimda, suratlarda aynan Fotima opaning zamonaviy ko‘rinish va bichimida to‘qilgan sumkalarini ko‘rib, qoyil qoldim. Ularning namunalari Chilonzor tumanidagi Botirma mahallasidan tadbirkorga ajratilgan binoga ham taxlab qo‘yilgandi. Bularni ko‘rgach, ushbu hunarga qiziqishim yanada oshib, savollarni ko‘paydi. Bu ishing boshlanish tarixi ham men uchun qiziq bo‘ldi.

— Asli kasbim o‘qituvchilik. Bir necha yil ta‘lim muassasalarida kimyo fanidan dars berganman, — deydi “Yarntextile Fotima Kurbanova” korxonasi rahbari F.Qurbanova. — 2013-yilda salkam o‘n yil kutilgan farzandimni dunyoga keltirganimdan so‘ng bola parvarishiga chiqdim. Bu ta‘kil keyingi farzandimnikiga ulanib ketdi. Uyda bekor o‘tirishni istamayotgan bois, biror mashg‘ulot bilan shug‘ullanish o‘yiga tushdim. Shunda buvimdan meros, qolgan tikuvchilik hunarini takomillashtirishga qaror qildim. Internet tarmoqlari orqali poyabzal to‘qishni o‘rganib, shu ishga kirishdim. Poyabzalni shunday sifati

to‘qishim kerak ediki, kosiblardan o‘tmasam hisob emasdi. Va bu maqsadimga erishdim. Hozirgacha qanchalik tez ishlamay, asosiy e‘tiborim doim mahsulot sifatida bo‘ladi. Chunki xaridor sizni ana shu sifat bilan tanib qoladi va bu uning qayta buyurtma berishiga asos bo‘ladi.

Pandemiya davrida shu ish ortidan oila tebratishimga to‘g‘ri keldi. Turmush o‘rtog‘im futbol murabbiyi bo‘lgani bois, bir muddat ishsiz qoldi. Menga esa to‘qilgan poyabzallar uchun buyurtmalar bera boshlashdi. Ayniqsa, xorijliklar har hafta o‘nlab poyabzal buyurtma qilishardi. O‘sha kezlari shunchalik tez ishlardimki, bir kunda 2 ta poyabzal to‘qirdim. Chunki bir o‘zim bo‘lganim uchun buyurtmalarni tezroq bajarishga intilardim. Keyinchalik bu ishga qiziquvchilar ko‘payib, shogirdlarga o‘rgata boshladim. Uymiz tor bo‘lishiga qaramasdan o‘nlab o‘quvchilarni sig‘dirib dars o‘tganman. Yaqingacha talabgorlarga hunarimni bepul o‘rgatib keldim. Kasbim o‘qituvchilik bo‘lgani uchunmi dars o‘tishni sharaf deb bilganman. Buyurtmalarim ko‘paygan vaqtida shogirdlarim ko‘maklashgan. Ammo ularning har bir ishiga qabul to‘laganman. Ham hunar o‘rganib, ham daromad topgan ko‘pchilik.

Karantinda vaqtida onlayn darslar tashkil qilib, videoqo‘llanmalar chiqarga boshladim. Bugungi kungacha 5 mingga yaqin kishi ana shu onlayn kurslarda o‘qidi. Keyingi bir yilidagina pullik kurslar tashkil etdik. Ochig‘i, ba‘zilar hunarni darrov ko‘p pul topish maqsadida o‘rganadi. Ammo bu noto‘g‘ri. Birinchi navbatda, inson ishini yaxshi ko‘rib bajarishi va o‘z ustida ko‘proq o‘rnatish kerak. Qolaversa, sifat doim birinchi o‘rinda tursagina xaridor ham, daromad ham o‘z-o‘zidan oshib boraveradi.

Pandemiya davridan keyin xaridorlarim soni yanada oshdi. Endi poyabzaldan tashqari boshqa mahsulotlar ham to‘qish ustida ishlay boshladim. Hozir eng ko‘p xarid qilinayotgan chaqaloqlar belanchagi, ayollar sumkalari va boshqa talabgir mahsulotlarga o‘tdim. Ularning dizayni ustida o‘zim ishlayman va doim yangilik qilishga intilaman. Ayrim mahsulotlarimiz patentlangan, ammo hali patent olinishi kerak bo‘lgan dizaynlarim ko‘p. Shuning uchun ularni hozircha bozor rastalariga ommaviy sotishga chiqarmayman. Asosan mahalliy va xorijiy ko‘rgazmalardan buyurtmalar olamiz.

Avvaliga to‘qilgan mahsulotlar haqida gap borganida, biz bilgan an‘anaviy to‘qish usuli bo‘lsa kerak degan xayolga bordim. To‘qilgan

poyabzallarni tasavvur qilishim ham qiyin bo‘ldi. Ammo Fotima opa tayyorlagan mahsulotlarni ko‘rgach, tushundim. Gap odatdagi kiyim to‘qish haqida emas ekan. Bunda matoli qalin ipdan poyabzal, sumka va boshqa mahsulotlar qo‘lda bir-biriga ulanib tikiladi.

Qizig‘i, ularni to‘qishda foydalaniladigan ip ham g‘aroyib bo‘lar ekan. Bir qarashda burama bo‘lib qolgan mato shunchaki ip sifatida o‘rab chiqilgandek. Aslida ham shunday. Fotima opaning aytishicha, aynan mana shu burama shakl to‘qiladigan mahsulotning chiroyli chiqishi uchun zarur. Ayol bu iplarning o‘ralishini ilk bor internet tarmoqlarida ko‘rgan, keyinroq uni o‘zimizda tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi. Ip qo‘lda o‘raladi va bunga qiziquvchilar ham ko‘p. Uyda o‘tirgan istalgan ayol bu ish bilan shug‘ullanib, daromad topishi mumkin. Meni, ayniqsa, ip xomashyosi qoldiqiga chiqariladigan qiyim matolardan o‘ralishi hayron qoldirdi.

— Buni ko‘mmagan odam tasavvur qilishi qiyin, — dedi Fotima opa tushuntirishga urinib. — Bolaligimdan ota-onamning kasbi sabab ko‘proq buvinimda katta bo‘lganim bois, tikuvchilikni yaxshi o‘zlashtirganman. Shu sababli, tikish jarayonida matoning cheti kesib tashlanib, qiyimni qoldiqiga chiqarilishini bilardim. Odatda bu qoldiq tashlab yuboriladi. Bir videoda ana shu qiyimni ipga aylantirish mumkinligini ko‘rib qolganman va buni o‘rganib olib, sinab ko‘ra boshladim. Avvaliga qiyimlarni ip o‘rash uchun qo‘shni ayollarga tarqatdim. Keyinchalik ipga talab oshib borganch, yurtimizning barcha hududlaridagi atele, tikuv sexlari bilan shartnomalar tuza boshladik. Xarajatlarni tejash maqsadida o‘sha yerning o‘zidagi xotin-qizlarga video tarzida ish o‘rgatilib, ip o‘rashga jalb qilindim. Ular o‘ralgan tayyor ipni jo‘natadi va har bir o‘ram uchun 2 ming so‘mdan to‘laymiz. Bitta ipni o‘rashga 3 daqiqadan kekganda ham, tasavvur qiling, 3 soatda qancha mahsulot tayyorlash mumkin. Bu uyda o‘tiradigan ayollar uchun juda qulay ish. Ular orasida har uch kunda 500 ta o‘ralgan ip olib kelib topshiradiganlari ham bor. Mehnat haqi joyida to‘lanadi.

Qolaversa, bu tikuv sexlari uchun ham qo‘shimcha daromad keltiradi. Chunki ular chiqindiga chiqarib yuboradigan mato qiyimni biz sotib olib, qayta ishlaymiz. Sexda mato qiyimlari kesib olinib, poplarga joylanadi. Ma‘lum tonnage yetgach, olib ketamiz. Qiyim uzunligi oddiy ateleyma ham eng kichigi 5 metr bo‘ladi, sexlarda esa bu yanada uzunroq. Matolar qavat-qavat taxlangani bois, ulog qismi bitta rulon tugagandagina bo‘ladi. Shu bois, iplarni o‘raganda deyarli ulog tushmaydi.

Iplar ekologik toza mahsulot ekani bilan ajralib turadi. Hatto xorijliklar namuna olib ketib tekshirganida ham bu isbotlangan. Shu bois, chet davlatlardan buyurtmalar ancha ko‘p. Fotima opa esa daromad topishdan ko‘ra, ko‘proq ayollar bandligini ta‘minlash haqida o‘ylaydi. Hozir uning hunarini o‘rganaganlar ham, uyda o‘tirib ip o‘rayotganlar ham shu ish ortidan daromad topib, oilasi ro‘zg‘origa ko‘maklashyapti. Birgina korxonaning o‘zida 50 ga yaqin xotin-qizning doimiy bandligi ta‘minlangan. Yuzlab ayollar ip o‘rab topshiradi.

Ayol chet davlatdan 2 ta ip o‘rash apparatini ham olib kelgan. Ammo baribir qo‘l mehnatiga urg‘u beradi. Shuning ortidan shu ko‘proq xotin-qiz ishli bo‘lsin deydi. Ana shu tashabbusiga javoban Chilonzor tuman hokimligi ham tadbirkor ayolni doimiy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Avvaliga tadbirkorga Guliston mahallasidan, keyinroq Botirma mahallasidan bino ajratildi. Fotima opa shu binolarda ham o‘quvchilarga dars o‘tib, ham amaliy ishlarni olib boradi. Bino ichi o‘zlari tayyorlagan to‘qilgan mahsulotlar bilan to‘la. Har biri san‘at asari go‘yo. Ayniqsa, ayollar sumkalarining bejirilm dizayni har qanday nozik did sohibasiga ma‘qul kelishi turgan gap.

Ish avvalida hunarmandga 100 million so‘m imtiyozli kredit ham ajratilgan. Bu pullarni ayol to‘g‘ri ishlata oldi va hozir kattagina aylanma mablag‘ga ega. Fotima opa shularning bari uchun yurtimizdagi har bir insonni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizim — “mahalla yetilligi”, tuman hokimligi ko‘magidan mamnun: “Mahallaga chiqqanimda, ular menga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishdi. Agar shunday qo‘llab-quvvatlov bo‘lmaganida bunchalik natijalarga erisha olmagan bo‘lardim. O‘tgan yili davlatimiz rahbarining Yunusobod tumaniga tashrif chog‘ida Prezidentimiz bilan suhbatda ham shular haqida gapirdim. Mahallamiz ahli doim yonimda turib, har tomonlama ko‘mak berayotganlaridan minnatdorman”.

Kambag‘allikdan chiqarishda yangi yondashuvlar

Bugun mamlakatimizda mahalla shunchaki maqomga ega manzil emas, balki har bir yurtdoshi-mizning farovon hayot kechirishi, hayotidan rozi bo‘lib yashashi, ishlab daromad topishiga mas‘ul katta bir tizimga aylangan rosti. Dunyoda muqobil yo‘l bo‘ladi bu tizim o‘tgan yillar davomida

yanada takomillashtirib borayotgani, samaradorlik aniq natijalarda ko‘rinayotganiga misollarni talaygina. Odamlar bugun haqiqatan barcha masalada mahallaga ishonaypti, suyanaypti. Biror muammo yoki masalasi bo‘lsa, qaysidir tashkilotga yugurish haqida emas, mahallaga chiqishni o‘ylaypti.

Joriy yilning yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlangani ana shu tizimni takomillashtirib borishga qaratilayotgan e‘tiborning yana bir ifodasi bo‘ldi. Yil boshidanqo mamlakatimizdagi har bir mahalla oldiga aniq vazifalar qo‘yilgani



boisi shunda. Asosiy vazifa esa aholi bandligini ta‘minlab, kambag‘allikni bartaraf etishga qaratilgan.

Kecha davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yildagi asosiy vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham bu boradagi vazifalar bevosita mahalla bilan bog‘lanishi, ayni shu joy islohotlarning qanchalik ishlayotganini ko‘rsatib berishi haqida gapirildi. Ana shu islohotlar orqali joriy yilda yurtimizda 1 million aholini doimiy ish bilan ta‘minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag‘allikni 4,5 foizga tushirish vazifasi belgilab olingan.

Mirzohid ABDUQODIROV,
Chilonzor tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari:



— Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini bajarish maqsadida aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirishda yagona va qoligap solingan yondashuvlardan voz kechilib, har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan “individual rivojlanish modellari” hayotga tatbiq etilmoqda. Bunday tajribalar hozir hamma joyda bor va ular ommalashib boryapti. Birgina, “Sayxunobod tajribasi” nafaqat qishloq xo‘jaligida, balki butun mamlakat miqyosida ichki imkoniyatlarni safarbar etishning namunaviy tizimiga aylandi.

Masalan, poytaxtimiz Toshkent shahrida yer resurslari cheklangani inobatga olinib, “yer ustida emas, bino ichida” tamoyili asosida yangi biznes ektozimini yaratilmoqda. Turar joylarning yerto‘lalaridan oqilona foydalanish, birinchi qavatlamini noturar joyga aylantirish orqali servis va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini shakllantirish shahar iqtisodiyotini mahalla ichiga olib kirishning eng samarali yo‘li bo‘ldi.

Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishda rahbarlarning mas‘uliyati va xalq bilan yuzma-yuz ishlash tizimi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘tgan yili Chilonzor tumanida shahar va tuman darajasidagi 92 ta rahbar va ularning o‘rinbosarlariga ehtiyojmand oilalarning biriktirilishi shunchaki ma‘muriy topshiriq emas, balki “inson taqdiri uchun shaxsiy javobgarlik” tizimidir. Xususan, Chilonzor tumani misolida ko‘radigan bo‘lsak, rahbarlar o‘zlariga biriktirilgan har bir oila a‘zolarining oylik daromadini kamida 1,5 million so‘mga yetkazishni strategik maqsad qilib oldi.

Mahalla iqtisodiyotini yuksaltirishda mikroloyihalar eng tezkor va samarali vositadir. 2025-yilda Chilonzor tumanidagi 55 ta mahallaning har birida 50 tadan mikroloyiha ishga tushirilishi natijasida hududda 2700 dan ziyod yangi tadbirkorlik subyekti paydo bo‘ldi. To‘g‘ri, ular hozircha kichik biznes. Ammo bugungi kichik biznes erangi yirik ishlab chiqarishning debochasidir. Muhimi, ana shu kichik va o‘rta biznesdan ham odamlar yaxshigina daromad topib, o‘zi va atrofdegilar bandligini ta‘minlamogda.

Jarayonda “hokim yordamchisi — bank — tadbirkor” zanjirining uzluksiz ishlashi natijasida

tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 28 tasining faoliyati kengaytirilishi natijasida 318 ta ish o‘rni yaratildi. 130 ta tadbirkorlik subyekti faoliyati 24/7 ish rejimiga o‘tkazildi.

— Shu ko‘chadagi bir binoni ijaraga olib, “Zo‘r joy” nomi bilan ovqatlanish maskani tashkil etdim, — deydi tadbirkor Mahmudjon Abdurashidov. — Bu yerda tez pishadigan taomlar tayyorlanadi. Ish boshlaganimizga bir oy bo‘ldi. Binoni ijaraga olish, ruxsatnoma ishlarning barida tuman hokimligi, mahalla vakillari yonimda turib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi. Binoning tashqari qismidagi 70 kvadrat metr joydan foydalanishimga ham ruxsat berilgan. U yerda hozirda urfga kirgan kapsulalarni o‘rnatganmiz. Bu ko‘proq odamga xizmat qilishni ta‘minlaydi. Hozir 6 ta katta kapsula bor. Ularda har qanday ob-havo sharoitida o‘tirib ovqatlanish uchun barcha sharoitlar qilingan. Yorum, shinan, issiq kapsulada hatto minus daraja sovuqda ham odamlar yengil kiyimda o‘tirib taomlayapti. Atrofimizda o‘nlab ovqatlanish maskanlari bor, shunga qaramay har biriga talab yuqori. Chunki odamlar ko‘p, daromad ham yomon emas. Hozircha kuniga 200 ta odamga xizmat ko‘rsataymiz. Qisqa vaqtda buni 400–500 taga yetkazishni mo‘ljallaganmiz.

Bog‘chada Finlyandiya tajribasi

Sharoit yaratib berilsa, ko‘rquv bo‘lmasa, tadbirkorlar soni ko‘payaverarkan. Buni mamlakatimiz amaliyotida ko‘rtyapmiz. Har bir mahallada 50 tadan mikroloyiha yaratish harakati aytishgagina oson. Ammo uning ko‘lami tasavvur qilinsa, aql shoshib qoladi.

Taklifa yarasha talabning ham borligi asosiy jihatlardan biri. Farzandli odamlar yaxshi biladi, keyingi yillarda yurtimiz bo‘ylab qanchadan qancha xususiy ta‘lim maskanlari ochilyapti. Bu ham bo‘lsa, barcha sohalar qatori ilimga, ta‘limga bo‘lgan e‘tibor karrasiga oshgani misoli. Tadbirkorlik jihatidan ham bu yaxshi yo‘nalishga aylandi. Xususiy bog‘cha va maktablar soni ortgani sari ota-onalarda ham tanlov imkoniyati kengayib, bu tadbirkorlarning yanada o‘z ustida ishlashi, bilim berishda sog‘lom raqabotga kirisha olishiga turki beryapti.

Chilonzor tumanining Sharaf mahallasida o‘tgan yilning oxirida ishga tushgan yana bir tadbirkorlik loyihasi — “Fairy tail” nomli xususiy bog‘cha ham bolalarni Finlyandiya tajribasi asosida o‘qitish hamda muassasada barcha qulayliklarni yaratish orqali zamonaviy yondashuvlarni ko‘llamoqda. Bu yerda bir qavatli savdo-servis obyektni “o‘stirish” hisobiga to‘rt qavatli bolalar bog‘chasiga aylantirildi. Loyiha ishga tushishi ortidan 45 kishining bandligi ta‘minlandi, ularning aksari hududdagi kam ta‘minlangan oilalar a‘zolari.

— Bog‘cha to‘rt qavat hamda to‘rt qismidagi o‘yin maydonchasidan iborat bo‘lib, 200 dan ortiq bola o‘miga ega, — deydi ish yurituvchi Madina Dadaboyeva. — Bizda bolalarga Finlyandiya tajribasi asosida ta‘lim beriladi. Gap shundaki, bu tajriba dunyoda yetakchi bo‘lib, bolalarga o‘yinlar orqali bilim berish metodikasi hisoblanadi. Bu tajribani chuqurroq o‘rganib, amaliyotga tatbiq etish maqsadida avval o‘zim, keyin tarbiyachilarning maxsus xorijlik muxassis yordamida o‘qib, xalqaro diplomni oldik. Chunki hozirgi kunda ota-onalar qo‘yadigan asosiy talablardan biri bu — sifati bilim, toza, shinan sharoit, sifati ovqatlanish hisoblanadi. Bizda ana shularning bariga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Bog‘chada robototexnika, musiqa, aktyorlik mahorati kabi ko‘plab to‘garaklar bor. Bolalar uchun sog‘lomlashtiruvchi massaj, suzish, sport mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yilgan. Har hafta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Bog‘chadagi har bir xona eshigi va devorlar ranglari bolalarning yoshi, psixologiyasiga ko‘ra tanlangan. O‘yinchiq, idish-tovoqlardan tortib, zamonaviy jihozlarning bari ekologik mahsulotdan. Har bir xonaga havo tozalagichlar, elektron interaktiv doskalar o‘rnatilgan. Ayniqsa, xavfsizlikka alohida e‘tibor qaratilgan. Hech qayerda burchak yo‘q, karovatlar ham faqat bir qavatli. Tomdagi bolalar maydonchasida esa xorijdan olib kelingan maxsus to‘shama yotqizilgan bo‘lib, bola yiqilsa ham lat yemas ekan. Bog‘cha bo‘ylab o‘rnatilgan 200 dan oshiq kuzatuv kameralari xotiralarini esa ota-onalar ham bemalol, shaffof tarzda ko‘rishni mumkin.

Sharaf mahallasi hokim yordamchisining aytishicha, o‘tgan yili bu yerda ham 50 ta mikroloyiha ishga tushirilgan. Joylarni ajratishda asosan ko‘p qavatli uyler yerto‘lasi, birinchi qavatlaridan foydalanilyapti. Tadbirkorlar ish boshlash uchun imtiyozli kreditlar, subsiyalar ajratib berilmoqda. Maqsad esa yurtimizda tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish va har bir oila daromadi hamda farovonligini oshirishga qaratilgan.

Yurtimizdagi har bir mahalla ushbu xayrli ishlarga bosh-qosh bo‘lmoqda. Mahalla chin ma‘noda birlashtiruvchi, yo‘naltiruvchi tizimga aylandi. Bu harakatlari natijalari esa jamiyat yuksalishi, odamlar turmush farovonligi, yurt taraqqiyotiga xizmat qilayotgani barchamizni quvontiradi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Farovonlik xaritasi

MEHNAT BOZORINING ZAMONAVIY ARXITEKTURASI

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ayniqsa, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos yoshlar avlodini tarbiyalash masalasi hujjatdagi asosiy g'oyalardan biri bo'ldi.

Murojaatnomada belgilangan to'rtinchi ustuvor yo'nalish — kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish mamlakatimiz kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, mazmuni va tuzilmasini yangilashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish strategiyasi inson kapitali nazariyasi, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar qator asosiy tamoyillarni qamrab oladi.

Ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga mosligi, amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, ta'lim sifatini ta'minlash va baholash hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish shular jumlasidan. O'z navbatida, mazkur tamoyillar kasbiy ta'lim islohotlarining strategik yo'nalishlarini belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bunda kasbiy ta'lim muassasalarining tarmoqlar bo'yicha qayta tashkil etilishi, o'quv reja va dasturlarni yangilash, zamonaviy kasblar va mutaxassisliklarni joriy etishni alohida qayd etish lozim. Bu jarayonda xalqaro standart va ilg'or tajribalar ham inobatga olinmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashda ish beruvchilar ishtirokida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, dual ta'lim tizimini joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim ulushini oshirish kasbiy ta'lim samaradorligini kuchaytirish orqali bitiruvchilarning bandligini oshirishga zamin hozirlamoqda.

Shu o'rinda ta'lim sifatini oshirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirishda kasbiy ta'limda o'qitish natijalarini baholashning zamonaviy tizimlarini joriy etish, kasbiy standartlar asosida malaka talablarini belgilash islohotlarning

hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish g'oyat muhim.

Kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlar strategiyasida, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini malakali kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifadir. Zero, islohotlarni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish, natijadorligini ilmiy asosda baholash tizimining barqaror rivojlanishiga asos bo'ldi.

Bugungi globalashuv va tobora avj olayotgan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun yuqori malakali, zamonaviy kasb va kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlashga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi davr talabi kasbiy ta'lim tizimida jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda.

Murojaatnomada kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini shakllantirish joriy yilning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib bejiz belgilanmadi.



muhim qismidir. Bu orqali ta'lim sifati ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi. Mazkur sohada kadrlar salohiyatini rivojlantirishda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ishlab chiqarish mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish inson resurslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mehnat bozori tahliliga asoslangan kasblar klassifikatorini muntazam yangilab borish, kasbiy ta'lim muassasalarini moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, pedagoglar uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish, ta'lim natijalarini baholashning yagona milliy tizimini

“Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinarlarning soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi. Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida — kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur”, dedi Prezidentimiz.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelmoqda. Buncha odamni o'qitish, kasb-hunarli qilish, ularga

ish topib berish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun muntazam ishlaydigan tizim, kafolatli investitsiya va infratuzilma zarur. Qolaversa, dunyoda kechayotgan hozirgi raqamlashtirish, sun'iy intellekt va yangi texnologiyalar jarayonida mehnat bozori ham tubdan o'zgarmoqda. Mana shu talabning o'zi ham bu jarayonga kechikmay moslashishni taqozo etmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, bolada biror-bir kasbga qiziqish 7-sinfdan uyg'onib, qaysi kasbni tanlashi 9-sinfda to'liq ma'lum bo'ladi. Shu bois, endi 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimi joriy etiladi. Bunda oliyoghlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi. Shu maqsadda texnikumlarga zamonaviy qiyofa va yangicha muhit olib kirish bo'yicha besh yillik dastur tasdiqlandi.

Ushbu vazifalar yoshlarning talab yuqori kasblar bo'yicha dunyoda raqobatbardosh, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun bo'lishiga zamin hozirlaydi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini — texnikumlar yangi sifat bosqichiga olib chiqiladi. Buning uchun 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'mirlanib, texnologik va talab yuqori kasblarga mos holda jihozlanadi.

Yangi O'zbekistonda aholi bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish uchun keng ko'lamli islohotlar jarayoni bugun umumxalq muhokamasiga qo'yilgan “O'zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasining ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topgan. Unda har bir fuqaroning davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 1 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish, nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar ulushini 3 baravar oshirish, kasbiy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish va moddiy-texnik bazani takomillashtirish ko'rsatkichini 70 foizga yetkazish, 14 ta hududiy ilg'or kasbiy mahorat texnikumini va “Kasblar shaharchasi”ni tashkil etish vazifalari belgilangan.

Mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma'lumotli kadr kirib kelayotganini hisobga olsak, endi OTM bitiruvchilari va ish beruvchilar o'rtasida ko'prik bo'ladigan raqamli

ekotizim yaratiladi. Unda talabalarning akademik ko'rsatkichlari va korxonalardagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar onlayn ko'rinish turadi.

Shu ma'noda, Murojaatnoma oddiy ma'ruza emas, balki yangi O'zbekistonnin barpo etishga qaratilgan, puxta o'ylangan, inson qadri ulug'langan strategik dasturdur. Undagi har bir yo'nalish yurtimizning barqaror taraqqiyoti, yoshlar kamoloti, mahallalar ravnaqi va jamiyat yuksalishining mustahkam kafolatidir.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

yuз.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Bugunning gapi

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Navoiy shahridagi 22-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Islombek Mansurov chet tilini bilish bo'yicha B2 darajasini qo'lga kiritgani, xuddi shunday natijaga Chiroqchi tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Munavvar Nuraliyeva ham erishgani, Olmaliq shahridagi xususiy maktabning 6-sinf o'quvchisi Shodiya Abdusattorova ingliz tilidan IELTS 6.5 balli sertifikat sohibi bo'lgani haqida xabarlar tarqaldi. Xullas, keyingi paytlarda bunday xabarlarga tez-tez ko'zimiz tushmoqda va bunga o'rganib ham qoldik. Vaholanki, bir necha yillar oldin bunday ko'rsatkichlar universitet bitiruvchilari uchun orzu edi. Bugun esa bu yangi O'zbekistonning yangi avlodi uchun odatiy holga aylanib bormoqda.



“AKSELERATSIIYA” FENOMENI

IELTS QURUQ TRENDMI YOKI TA'LIMDAGI INQILOB MEVASI?



Fazliddin SATTOROV, jurnalist

Xo'sh, bunday natijalar o'z-o'zidan paydo bo'ldimi? Yoki bu ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar va rag'bat tizimi mahsulimi? Keling, vaziyatni chuqurroq tahlil qilamiz.

IELTS o'zi nima va u nega kerak? Ko'pchilik ota-onalar va yoshlar “IELTS” so'zini eshitgan. Lekin uning asl mohiyatini hamma ham to'liq tushunmasligi mumkin.



Sodda qilib aytganda, IELTS (International English Language Testing System) — sizning ingliz tilini qanchalik bilishingizni aniqlab beruvchi “tarozi”dir. U to'rtta ko'nikmani tekshiradi: eshitib tushunish, o'qish, yozish va gapirish.

Mazkur sertifikat nima beradi?

Avvalo, u abituriyentlarga oliy o'quv yurtiga kirishda chet tili fanidan maksimal ball olish imkoniyatini taqdim etadi. Ya'ni sertifikatni bor yoshlar kirish imtihonlarida ingliz tili blokini yechib o'tirmaydi, ularga to'liq ball yoziladi. Ikkinchidan, xorijiy nufuzli universitetlarda o'qish yoki rivojlangan davlatlarda ishlash uchun bu hujjat xuddi “viza” vazifasini o'taydi. Uchinchidan esa ko'plab tashkilotlarda til sertifikatiga ega xodimlarga oylik maoshiga qo'shimcha ustamalar to'lanadi.

O'zbekistonda bugun til o'rganishga qiziqish keskin oshgani bejiz emas. Bu so'nggi yillarda davlat siyosati darajasida ta'limga qaratilayotgan e'tibor samarasi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar, xususan, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha qarorlar sohada tub burilish yasadi.

Eng katta afzalliklaridan biri — imtihon xarajatlarining qoplab berilishi bo'ldi. Bugungi kunda xalqaro imtihon topshirish arzon emas (taxminan 2 million so'mdan oshiq). Lekin bizda yo'lga qo'yilgan tizimga ko'ra, yuqori natija (C1 yoki IELTS 7.0 va undan yuqori) ko'rsatgan yoshlarga imtihon puli to'liq qaytarib berilmoqda. Bu oila byudjetiga foyda bo'lish bilan birga yoshlarda “Bilim olsam, davlat meni qo'llaydi” degan ishonchni uyg'otdi. Natijada naqafat shahar markazlarida, balki chekka hududlardagi yoshlarda ham ishtiyoq olovlandi.

So'nggi besh yil (2021-2025-yillar) davomida xorijiy til imtihonlaridan yuqori natija qayd etgan 56 ming 354 nafar yoshga davlat tomonidan jami 111 milliard so'mdan ortiq mablag' to'lab berildi. Eng quvonarlisi, yoshlarning bilim darajasi keskin oshgan. Raqamlarni tahlil qiladigan ko'rsak, 2025-yil ko'rsatkichlari 2020-yildagiga nisbatan hayratlanarli darajada o'sganini ko'rish mumkin: IELTS 5.5 va undan yuqori ball olganlar soni — 5,7-0-8,0 ball (C1 daraja) olgan kuchli bilimdonlar — 7,4, 8,5-9,0 ball (C2 — eng yuqori daraja) sohiblari esa — 23,7 barobar oshgan. Bundan ko'rinnadiki, yoshlarimiz endilikda tilni shunchaki “o'rtacha”

emas, balki akademik va professional darajada egallashga intilyapti.

Rekordchi bolalar faqat poytaxtda emas, balki hududlarda ham ko'payib bormoqda. Bu ham ta'lim sifati butun mamlakatimiz bo'yab yoyilayotganidan dalolatidir.

Hozir respublikamizning eng chekka tuman va qishloqlarida ham zamonaviy o'quv markazlari faoliyat yuritmoqda. Davlat tomonidan xususiy ta'lim sektoriga berilgan soliq imtiyozlari, kreditlar va keng sharoitlar sababli, malakali ustozlar viloyatlarga qaytib, sifatli ta'lim berishni boshladi. Bugun G'ijduvon yoki Shahrisabzning chekka qishlog'ida o'quvchi ham Toshkent yoki Londonda tengdoshi bilan bemalol raqobatlasha oladigan darajada bilim olmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi qarori bilan yoshlarga yana bir yengillik yaratildi. Agar avvallari faqat ingliz tili ustuvor bo'lgan bo'lsa, endilikda “ikkinchi til” o'rganuvchilariga ham keng yo'l ochildi.

Xususan, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo'yicha imtihon xarajatlarini qoplab berish talabi bir pog'ona pasaytirildi. Endilikda ushbu tillardan B2 va unga tenglashtirilgan darajadagi sertifikatga ega bo'lgan yoshlar ham imtihon pulini to'liq qaytarib olishlari mumkin. Bu qaror, ayniqsa, Yevropa va Osiyo davlatlari bilan hamkorlik qilmoqchi bo'lgan yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi.



Hozir mavjud 18 turdagi xalqaro imtihon tizimlarida muvaffaqiyat qozongan yoshlar o'z xarajatlarini ortiqcha ovoragarchiliksiz, masofadan turib, “Xazna” mobil ilovasi orqali tezkorlik bilan qaytarib olishlari mumkin.

Biroq masalaning ikkinchi tomoni bor: bu global trendmi yoki faqat bizga xos xususiyatmi? Keling, vaziyatni ayrim davlatlar misolida tahlil qilib ko'ramiz.

Qo'shnilarda vaziyat qanday?

Bizga madaniyati va mentaliteti eng yaqin bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston va Qirg'izistonda ham ingliz tiliga bo'lgan talab ball olganlar soni — 5,7-0-8,0 ball (C1 daraja) olgan kuchli bilimdonlar — 7,4, 8,5-9,0 ball (C2 — eng yuqori daraja) sohiblari esa — 23,7 barobar oshgan. Bundan ko'rinnadiki, yoshlarimiz endilikda tilni shunchaki “o'rtacha”

orqali xorijda o'qish yoki mahalliy nufuzli universitetlar grantlarini qo'lga kiritish. O'zbekistonda kuzatilayotgan 11-12 yoshli bolalarning “ommaviy” ravishda til sertifikat olishi qo'shnilarimizda hali keng qamrovli trendga aylanmagan. Ularda til o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich, yoshga mos ravishda kechadi.

Osiyo yo'lbarslari: “hayot-mamot” masalasi

Agar O'zbekistondagi vaziyatga eng o'xshash modelni qidirsak, uni Vyetnamdan topamiz. Janubiy-Sharqiy Osiyoning ushbu jadal rivojlanayotgan davlatida ham IELTS — ijtimoiy status belgisi.

Vyetnamda ham xuddi bizdagi kabi 6-sinf-dan boshlab til o'rganishga “intensiv hujum” boshlanadi. Sababi ham o'xshash: yuqori ball nufuzli ixtisoslashgan maktablarga kirish va milliy imtihonlardan ozod bo'lish huquqini beradi.

Xitoy esa dunyodagi eng katta IELTS bozori hisoblansa-da, ularning maqsadi bir oz boshqacha. Xitoylik o'quvchilar va talabalar uchun IELTS bu — akademik muvaffaqiyatdan ko'ra, AQSH va Buyuk Britaniyaning “Top-100”taligiga kiruvchi universitetlari eshigini ochuvchi kalit. U yerda raqobat shu qadar kuchliki, sertifikatiz karyera qilish deyarli imkonsiz.

Yevropa paradoksi: “o'qish” va “topshirish” farqi

Yevropa Ittifoqi, xususan, Skandinaviya davlatlari, Niderlandiya va Germaniyadagi holat biz uchun butunlay teskari dunyodək tuyuladi. U yerda maktab ta'limi tizimining o'zi shunday qurilganki, bola ingliz tilini tabiiy muhitda, xuddi ona tilidek o'zlashtiradi.

Nemis yoki shved o'quvchisi maktabni bitirayotganda qo'shimcha repetitorsiz bemalol C1 (IELTS 7,0-8,0) darajasida gaplasha oladi. Eng qiziq'gi, ular buning uchun sertifikat olishga shoshilmaydi. Yevropada “IELTS uchun o'qish” tushunchasi yo'q, ularda “Tilni bilish va muloqot qilish” madaniyati ustuvor. Sertifikat faqatgina xorijga o'qishga ketish oldidan, shunchaki rasmiyatchilik uchun topshiriladi. Bizdagi kabi yillab test yechish mashg'ulotlari ular uchun yot.

Xo'sh, nima uchun aynan mamlakatimizda 12 yoshli bolalar kattalar kabi fikrlab, murakkab akademik matnlarni tahlil qilmoqda? Buning ikkita asosiy, boshqa davlatlarda kam uchraydigan sababi bor.

Birinchisi — moliyaviy rag'bat. Davlat tomonidan xalqaro imtihon xarajatlarining to'liq qoplab berilishi va eng muhimi, milliy oliy o'quv yurtlariga kirishda chet tili fanidan maksimal ball berilishi ushbu trendni keskin “yoshartirib” yubordi. Ota-onalar farzandining abituriyentlik davridagi yukini hozirdan yengillatish uchun 5-6-sinfdanqo repetitorlarga bermoqda.

Ikkinchisi — ijtimoiy lift. Bu omil ruhiy va iqtisodiy jihatlariga borib taqaladi. Ko'pchilik ota-onalar nazarida IELTS sertifikati farzandining kelajagi uchun eng ishonchli kafolat. Ular bu qog'ozni kambag'allikdan chiqish, dunyo ko'rish va jamiyatda yuqoriroq mavqega erishish uchun “oltin chipta” deb biladi.

Dunyoda globalashuv jarayoni tezlashgani sari IELTS olish trendi kuchayib bormoqda, bu tabiiy. Biroq 11-13 yoshli bolalarning ommaviy ravishda 7,0 va undan yuqori ball olishi bo'yicha O'zbekiston ayni damda dunyoda eng oldingi qatorlarda bormoqda.

Bu bir tomondan quvonarli. Yoshlarimizning intellektual salohiyati oshmoqda, dunyoga integratsiyalashuv tezlashmoqda. Ikkinchi tomondan esa bu bizni o'yantirishi kerak: biz bolalardan bolaligini olib qo'yib, ularni faqat “test yechish mashinasi”ga aylantirib qo'yamaymizmi? Yevropa kabi tilni “yashash” vositasiga aylantirish bosqichiga qachon o'tamiz? Nima bo'lganda ham, bugungi qahramonlarimiz yangi O'zbekistonning zamonaviy avlodi qanday salohiyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi yorqin vakillari.

SOG‘LOM TURMUSH SAHIFASI

HARAKAT TANANI SALOMATLIKKA, RUHNI CHIDAMLILIKKA YETAKLAYDI

Tong endi yorisha boshlagan, tabiat yangi kunni qarshi olishga hozirlanayotgan bir payt. Yer yuziga asta-sekin yurudga‘lik taraladi, havo tiniq, harorat past, barcha mavjudotda sukut ichra kuchga to‘lish, umid istagi aks etadi go‘yo.

Ana shu lahzalarda ko‘chaga chiqsangiz, yo‘laklarda, ochiq maydonchalarda badantariya yoki yugurish bilan mashg‘ul odamlarga ko‘zingiz tushadi. Asta-sekin ularning safi ortib boradi. Xiyobonlar, bog‘lar, stadion yoki boshqa kichik sport majmualari birin-ketin jismoniy mashg‘ulotlarga ishtiyiqi baland odamlar bilan to‘la boshlaydi.

Havo tiniq va sovuq, har bir nafas vujudni kislorod bilan to‘yintirib, ruhni tetiklashtiradi. O‘pka toza havoni singdirib, qon aylanishini faollashtiradi. Mashqlar nafaqat jism salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi, balki har bir harakat ruhni chidamlilik, sabr va intizomga o‘rgatadi.

Beixtiyor ko‘nglingizdan o‘y kechadi. Sog‘lom hayot o‘zi nima? Sabrmi, intizommi yoki zavq?

INTIZOM ZAVQLI ODATLARNI YARATADI

Shu o‘y-xayollar bilan bog‘da kezarkanman, fikrlarimni tanish ovoz buzdi. Buni qarangki, anchadan beri ko‘rishmaganimiz, valeolog shifokor, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Nozima Fayziyeva ham ertalabki jismoniy mashqlarni bajarish uchun shu so‘lim maskana kelgan ekan. Piyoda yurish asnosidagi suhbatimiz tabiiyki sog‘lom turmush mavzusiga ulandi.

— To‘g‘ri va oqilona ovqatlanish, badantariya mashqlari, zararli odatlardan chekinish, to‘laqonli uyqu tartibi intizomga bog‘liq, — deydi u. — Buning natijasida keladigan sog‘lomlik, quvvat,

quvonch hissi hayotga zavq bilan qarashga undaydi. Dastlab bu harakat intizom va sabrni talab qiladi, keyin esa maroq bilan o‘tadigan kunlar yoqimli turmush tarziga aylanadi. Uzoq umr ko‘rishning siri ham shunda. Ruh va jism salomatligiga g‘amxo‘rlik ketidan hayotdan rozilik hissi shakllanadi.

Ba‘zan inson haddan tashqari intizomli bo‘lishga intiladi. Istasa-istamasa, kun tartibiga qat‘iy rioya qiladi. Afsuski, ana shu entuziazm uzoqqa bormaydi. Aksariyat holatlarda insonning o‘zi intizomni sekin-asta buzishni boshlaydi. Tartib buzilmasligi uchun mashg‘ulotlarning



zavqli tomonini ko‘rish kerak. Kun tartibini o‘zgaruvchan, qiziqarli tashkil qilish lozim. Inson bir xil tartib bilan yashasa, hayotning qizig‘i qolmaydi. Masalan, ishga vaqtda kelish, yuklatilgan vazifalarni bajarish, har kuni bir xil uy yumushlari bilan andarmon bo‘lish ko‘ngilni



HARAKAT VA SOG‘LOMLIK

Sport bilan shug‘ullanishni yoqtirmaydigan odam ham sog‘lom bo‘lishi mumkinmi degan haqli savolga tez-tez duch kelamiz. Mutaxassisning ta‘kidlashicha, mumkin, ammo bu bir oz mushkul va ba‘zi bir cheklovlar bilan amalga oshiriladi.

— To‘g‘ri ovqatlansa, stressni nazorat qilsa, zararli odatlari bo‘lmasa, kun davomida ma‘lum miqdorda harakatda bo‘lsa, inson sog‘lom bo‘ladi. Masalan, ertalab mashq qilishni xohlamaydiganlar kontrast dush qabul qilsa bo‘ladi. Bu yurakka kardio zo‘riqish beradi va siz ertalabki badantariya qilgandek natijaga erishasiz, afcuski, yoshi katta insonlar uchun bu uslub bir oz xavfli bo‘lishi mumkin.

O‘z salomatligiga hurmat bilan yondashuvchi inson uchun baribir jismoniy mashqlar kerak. Kam harakatlilik natijasida yurak-qon tomir kasalliklari xavfi oshadi, ortiqcha vazn tez yig‘iladi, mushaklar zaiflashadi, immunitet pasayadi, kayfiyat va quvvat, hattoki iroda tushib ketadi.

Sport mashg‘ulotlari deganda faqat zal yoki og‘ir mashqlar tushunilmaydi. Mutaxassislar kundalik piyoda yurish, zinapoyadan foydalanish, uyda yengil mashqlar, velosiped, suzish, raqсни ko‘proq tavsiya etadi. Harakat qon aylanishini tezlashtiradi va stress gormonlari jigarda

parchalanadi. Jigardan qon o‘tib, filtrlangandan keyin stress darajasi pasayadi. Jismoniy mashq bilan shug‘ullanmaydigan, mushak tolasi unchalik shakllanmagan odamlar qanchalik harakat qilmasin, stress holatni yengishi qiyin bo‘ladi.

— Jismoniy salomatligingiz uchun ertalab sakkizgacha bo‘lgan badantariya eng foydalisi hisoblanadi, — deya fikrini davom ettiradi Nozima Fayziyeva. — Siz ertalab soat 8:00 gacha jismoniy mashqlarni bajarib bo‘lishingiz kerak. Ruhiiy holatingiz uchun esa eng samarali dam olishga 10 daqiqani 14:00-16:00 oraliq‘ida ajrating. Shu paytda 10 daqiqa uxlash sizni tetiklashtiradi. Suv ichish uchun ketgan 10 daqiqa ham koni foyda. Siz kun davomida suv ichishingiz mumkin. Ya‘ni kunning har xil vaqtida suv ichish uchun ajratilgan daqiqlar faqat salomatligingizga xizmat qiladi.

10 ming qadam tushunchasi haqida eshitgansiz. Bu tamoyil Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaponiyada aholining salomatligini tiklash uchun ishlab chiqilgan konsepsiya. Oxirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uch-to‘rt kilometr piyoda yurish samarali, qolgani esa chidamlilik beradi. Kun tartibingiz chidamli emas, samarador bo‘lishi kerak.

XOTIRJAMLIK — RUHIY SALOMATLIKNING MUHIM KALITI

Inson sevgan kasbida faoliyat olib borishi ham saodat. Qiziqarli va sevimli ish ummi uzaytiradi. Ayniqsa, ijodiy ish odamlarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashi, fikr va hissiyotlarini tartibga solishi, stress va tashvishlarini kamaytirishi tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Ijodiy jarayonda yuzaga keladigan “baxt gormonlari” insonning ruhiy barqarorligini ta‘minlashini mutaxassislar ko‘p bor ta‘kidlagan. Agar jarayon jismoniy harakatlardan ko‘lndirilsa, nur ustiga nur. Bu insonning ichki quvvatini oshiradi, sog‘lom va samarali hayot kechirishiga ko‘mak beradi. Qadr va hurmat, ochiq yuzlilik, samimiyyat yuzaga keladi.

— Hayotni boricha qabul qilish bu befarqlik yoki xudbinlik emas, balki salomatligingizga g‘amxo‘rlikni anglatadi. Xotirjamlik salomatlikning muhim kaliti ekanini unutmang, — deydi suhbatdoshim. — Agar siz organizmga bepisand munosabatda bo‘lsangiz, u ham sizga shunday javob qaytaradi. Agar siz chindan ham sog‘lom va barakali umr ko‘rishni istasangiz, tanangizga e‘tibor bilan munosabatda bo‘ling. Hammasi o‘z qo‘lingizda. Nekbinni qiyin emas. Faqat sizga nima yetishmayotganini eslang va hayotni mazmunli o‘tkazishga intiling.

Qishning sovuq havosidan junikkancha atrofini kuzataman. Bog‘ nafaqat dam olish maskani, balki sog‘lom hayot maydoniga o‘xshaydi. Tabiatdagi o‘zgarishlar bilan hamohang harakatlar, barqaror qadamlar salomatlik istayotgan odamlarning tetik ruhiyatidan darak beradi.

Inson o‘zini anglashi qachondan va qanday boshlanadi? Bu savoldan hamrohimi bir oz o‘yga tolib, ohista javob beradi:

— Bola tug‘ilgandan boshlab sekin-asta o‘zini anglab boradi. Ikki-uch oyilgida qo‘li, oyoqlari “o‘ziniki” ekanligini his qiladi, keyinroq tana a‘zolarining har biri alohidaligini, ma‘lum bir vaqtdan keyin esa onasi alohida inson ekanligini anglashni boshlaydi. Inson bolalik chog‘idanoq

intuitiv holatda o‘ziga quloq soladi. Vaqt o‘tgan sari jamiyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar ta‘sirida uning fikrlashi, xatti-harakati, xulq-atvori va ko‘nikmalari shakllanib boradi. Bola o‘zining intuitiv holatidan sekin-asta kattalarning hayotiga o‘tishni boshlaydi va mana shu paytda u o‘ziga quloq solmay qo‘yadi.

Katta yoshdagilar afsuski, salomatligi qadriini bilmaydi. Salomatlik qachon qadriyat darajasiga ko‘tariladi? Qachonki biror dardga yo‘liqsa, qandaydir bir mushkulot boshiga tushsa yoki yaqinlarining biri salomatligini yo‘qotsa, eng muhimi sog‘liq ekanligini anglab yeta boshlaydi. Yoshlikda, sog‘lomlik paytida hali salomatligim ko‘pga yetadi degan ishonch bo‘ladi. Shu bois, inson har kuni o‘ziga savol berishi kerak: bugungi kun sog‘ligim yaxshilanishiga hissa qo‘shdimi yoki salomatligimdan bir qismini o‘zi bilan olib ketdimi?

Ha, og‘riqlar biz boshdan kechirgan hissiyotlar mahsulidir. Bizni falaj qiladigan ko‘qrqv, istaganimiz, ammo yetisha olmaganimiz quvonch, qo‘yib yuborilmagan yo‘qotish qayg‘usi. O‘zimizni anglash ana shu og‘riqlarni tinglashdan boshlanadi. Bu signallar salomatligimizga e‘tibor berish, g‘amxo‘rlik qilishni unutganimizni eslatish uchun chalalayotgan bo‘lishi mumkin. Og‘riqlar nafaqat his-tuyg‘ularimiz va betobliklarni tushunish, balki ularni qabul qilish hamda bartaraf etishni ham o‘rganadigan shifo yo‘lidir.

Har bir sezgi, har bir og‘riq yoki noquaylik tanamizning tili ekanligi va qalbmiz tubida nimalar bo‘layotganini ochib beradi. Bu signallarni e‘tiborsiz qoldirganimizda o‘zimiz haqimizdagi muhim haqiqatlarga eshikni yopib qo‘ygandek bo‘lamiz.



— Tanamiz doimo bizga axborot yuborib turadi. Uning signallarini eshitish va tushunishga harakat qilish lozim. Yurak sanchdimi, unga quloq tuting, — deydi suhbatdoshim. — Qon tomir devorlari toraysa, yurakka ozuqaviy kislorod kam boradi. Ozuqa kam bordini, unda dimlanish paydo bo‘ladi. Qayerdadir ozgina orqaga qaytish, taranglik paydo bo‘ladi. Demak, yurak bu haqida sizga shikoyat qilyapti. Inson boshqalarga mehrg‘amxo‘rlik ko‘rsatganda hech qanday shart ko‘rsatmasligi kerak. Bunday holatni o‘z tana a‘zolarimizga munosabatda ham qo‘llash talab etiladi. Qachonki shart qo‘yilsa, muvozanat buziladi. Aytganingiz bo‘lmaganidan stressga tushasiz. Bu yurak-qon tomir kasalligining eng birinchi sababi. Yurakni stresslardan asrash kerak. Stressni yenguvchi birinchi omil bu — mushak ishi. Masalan, jahli chiqqan odam jismoniy harakat qilsa mushaklar ishga tushadi va qon aylanishi tezlashadi. Bu esa stressdan xalos bo‘lishga ko‘mak beradi. Piyoda yurish, raqsga tushish, suzish, velosiped haydash stressni yengishda yordam beradi.

Hayot pastu balandliklardan iborat. Umr yo‘llarimizda duch kelgan har bir inson, aslida, bizga “ustoz”dir. Ba‘zi insonlar gap, so‘z orqali, ba‘zilari qilayotgan xatti-harakatlari bilan ustozlik qiladi. Ayrim munosabatlar esa aynan qanday harakatlardan o‘zimizni tiyishimiz lozimligini ko‘rsatadi. Inson tahliily yondashgan holda ushbu hayotiy darslarni o‘zlashtirib boradi. Sog‘lom hayot va sog‘lom fikrlash aynan mana shu tahtliiy yondashuvga asoslangan bo‘lsa, yo‘ldan adashilmaydi. Har bir inson baxtli hayotga munosib, bu hayot sifati esa inson tomonidan ongli ravishda sog‘lom xatti-harakatlarni tanlash orqali ta‘minlanadi.

Hamrohim qo‘llarini yoygancha shamolga qarshi turishga harakat qiladi. Har yon to‘zg‘ib ketgan sochlarini to‘g‘ritilar ekan, tabiatning bu sinovi oldida irodasi sinalayotgandek sobit turishga intiladi. Keyin sovuqdammi bir oz qunishib, suhbatda davom etadi:

— To‘g‘ri, hayotimiz stressning xoli emas. Lekin ko‘p narsa insonning fikrlashi bilan bog‘liq. Ko‘pincha tanqidiy va ehtiyotkor bo‘lib fikrlaymiz. “Bu menga zarar keltirmaydimi?” degan qarash insonni to‘xtatib turadi. Lekin ijobiy fikrlaganda, yaratuvchanlik hissi paydo bo‘lganda inson “Hattoki mana shu holatda ham men qanday yangi narsa yaratga olaman? Qanday yangi fikr bera olaman dunyoga? Men qanday qilib buni ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan foydanga aylantira olaman?” degan variantlarni qidirishni o‘rganishi kerak bo‘ladi. Bu yerda bitta javob bo‘lmaydi. Kamida yetitta yo‘lini qidirish kerak va siz tushunib yetasizki, bu vaziyatdan chiqishning har xil yo‘li bor ekan. Bu yaratuvchanlik deyiladi.

Nima bo‘lganda ham, har qanday holatda hayotga ijobiy nuqtayi nazarni saqlash kerak. Ko‘proq tabassum qiling, kirishimli bo‘ling, zavqlaning, musiqa tinglang va yaqinlaringiz bilan muloqot qiling.

INSON ORGANIZMI ORTIQCHA DORIGA MUHTOJ EMAS

Organizm o‘z o‘zini boshqaradi, himoya qiladi va tiklash xususiyatiga ega. U hech qanday qo‘shimcha farmakologik preparatlarga muhtoj emas. Lekin biz hayot tarzimizni noto‘g‘ri olib borishimiz natijasida kasalliklar yuzaga keladi va dorilarga o‘zimizni tobe qilib qo‘yamiz. Ba‘zan dorisiz ham yengishimiz mumkin bo‘lgan holatlardan tezroq qutulish uchun kimyoviy preparatlarni qabul qilishga o‘tamiz. Lekin bu xato yo‘lning ilk qadamlari ekanligi bugungi kunda o‘z isbotini topmoqda. Farmakologik dori vositalari organizm uchun yot moddalar bo‘lib, ko‘pincha organizm shu yot moddani zararsizlantirishga qaratilgan faoliyatini kuchaytiradi va bu bilan o‘z ishidan chalg‘iy boshlaydi. Muammoning asorati bilan kashrshishimiz tobora ayon bo‘lib bormoqda.

Mutaxassislar ta‘kidlashicha, salomatlik holatiga ko‘ra aholini nisbiy ravishda uch guruhga ajratish mumkin: sog‘lom insonlar — 15-20 foiz, kasallikka chalinganlar — 15-20 foiz va kasallik oldi holatidagilar — 60-70 foizni tashkil qilar ekan. Yurtimizda kasallik oldi holatidagi insonlar soni talaygina. Bu esa bevosita yana sog‘lom turmush tarziga borib taqaladi.

— Kech uxlash yoki tunni bedor o‘tkazish nosog‘lom odatlari sirasiga kiradi, — deydi shifokor. — 8 soatli uyqu eng optimal hisoblanadi. Yetarlicha uxlamaslik melatonin gormonini

SALOMATLIGIMIZ DARAJASI HAM BAHOLANADI

Shifokorlar tomonidan tavsiya etilayotgan yangi umummilliy salomatlik konsepsiyasi aynan preventiv tibbiyot ustunlariga suyanagan holda, sog‘liqni asrashning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish hamda aholi salomatligini saqlash, yaxshilash va boshqarish masalalarini yoritib beradi. Har bir inson o‘z salomatligi darajasi, holatini miqdor jihatidan aniqlash imkoniga ega bo‘lishi zarur. Salomatlik darajasi esa o‘z navbatida salomatlik sifatiga ta‘sir etadi.

Salomatlik darajasi bu — organizmni asrovchi, himoya qiluvchi zaxiralarning miqdoriy ko‘rinishi. Uni aniqlash uchun mahalla darajasida salomatlik maskanlarini tashkil etish, yagona dastur orqali kadrlar tayyorlash va uslublardan foydalanish yetarli bo‘lishi mumkin. Ushbu zaxira jismoniy, ruhiy, intellektual kabi sohalarni o‘zida jamlaydi.

— Bolalarda salomatlik zaxirasi uning genetikasi va parvarishlash darajasiga bog‘liq, — deydi suhbatdoshimiz. — Umr davomida inson ma‘lum bir yoshga yetganda ushbu zaxira ko‘proq hayot tarziga bog‘liq bo‘lib qoladi. Keksalik paytida esa yana irsiyat o‘zini namoyon qilib, nasliy kasalliklar bilan kasallanish darajasi oshib

boradi. O‘z salomatligini boshqargan inson, albatta, o‘z shajarasini bilishi va nasliy kasalliklar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Ushbu ma‘lumotlar uni hayotidagi hулq-atvor ko‘nikmalarini o‘zgartirish va sog‘lomlashtirishga imkon yaratadi. Shifokor nazoratidan o‘z vaqtida o‘tish esa kasallik rivojlanmasligiga ko‘mak beradi.

Suhbatimiz shu yerda poyoniga yetdi. Garchi qish kuni bo‘lsa-da, tabiatda ajib bir tarovat bor edi. Sukutga cho‘mgan daraxtlar shamolu sovuqqa parvo qilmaydi, ular hech nimaga qaramay, sog‘lom va baxtli bo‘lish istagida sobit turgandek go‘yo.

Qishning toza havosi fikr va ruhga tiniqlik bag‘ishlar, umr atalmish ne‘matning nechog‘liq azizligi, uni asrash, mazmunli o‘tkazish o‘z qo‘limizda ekanini yana bir bor yodga solardi. Tana va ruhni salomat saqlashning siri esa, avvalo, turmush tarzimiz bilan bog‘liqliq suhbatdan olingan xulosa bo‘ldi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarl tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.
Bosmaxona telefonl: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-146.
32015 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 03:40